

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK -42:BBK 81.2-5

D-18

Daminova Orzigul Bektosh qizi

INGLIZ

VA O‘ZBEK BADIY MATNLARIDA DISKURS HOLATI

5A120102 – Lingvistika (ingliz tili)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ish “Ingliz tili va adabiyoti”
kafedrasida ko‘rib chiqildi va
himoyaga tavsiya etildi.

Kafedra mudiri

Obruyeva G.X

“_____” _____ 2018 y

Ilmiy rahbar:
f.f.n. A.A.Shermatov

Samarqand – 2018

Annotatsiya

Magistrlik dissertatsiyamiz mavzusi “Ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida diskurs holati” deb nomlanib, ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy asarlarda diskursning ifodalanishi, uning pragmatik asoslari, hamda semantik nuqtai nazardan tasniflash, ular o‘rtasidagi o‘zaro farqli va o‘xshash tomonlari ko‘rib chiqilishi ko‘zda tutilgan. Bunga ko‘ra, ingliz va o‘zbek tilidagi badiiy matnlar tanlab olindi va ularda diskursning aks etishi jadvallar asosida tadqiq etildi.

Dissertatsiya oldiga diskurs tushunchasining ilmiy mohiyatini yoritish va tilshunoslikda turgan o‘rnini baholash, matn va diskursning o‘zaro uyg‘unlashuvini yoritib berish ingliz va ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida diskursning qiyosiy tahlilini aniqlashga qaratilgan.

Dissertatsiya tahlilida deskriptiv, qiyosiy- chog‘ishtirma tahlil metodlaridan foydalanildi. Ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida diskurs kategoriyalarining tahlili va ularning tasnifi ishning yangligi bo‘lib xizmat qilgan.

Annotation

The basis of the dissertation is to compare and learn English and Uzbek literary texts in discourse. The main plot is devoted to the pragmatic analysis of literary texts and semantic classification of texts, defining the usage of discourse categories in English and Uzbek literary texts.

The aim of the dissertation is to define the notion of discourse, analyzing discourse in linguistics, analyzing the connection of discourse and texts and setting forth the comparative analysis of discourse in English and Uzbek literary texts.

On the description the dissertation there have been used special structure and a specific set of linguistic resources, investigations connected with comparative and descriptive methods. So the novelty of the dissertation is analyzing the usage of discourse categories in English and Uzbek literary texts.

MUNDARIJA

KIRISH.....	2
 I.BOB. TILSHUNOSLIKDA DISKURS TUSHUNCHASI VA VA UNING ILMIY MOHIYATI	
1.1. Diskurs tushunchasi to'g'risida.....	9
1.2. Diskursning asosiy kategoriyalari va uni modellashtirish masalasi.....	13
1.3 Diskurs va pragmatika.	27
I bob yuzasidan xulosalar.....	32
 II.BOB. DISKURS VA MATN UYG'UNLASHUVI	
2.1. Matn va uning lingvistik mohiyati.....	34
2.2. Badiiy matn tadqiqida diskursiv yondashuv	40
2.3. Badiiy matnni diskursiv tahlili to'g'risida.....	47
II bob yuzasidan xulosalar.....	54
 III. BOB. INGLIZ VA O'ZBEK BADIY MATNLARDA DISKURSNING QIYOSIY TAHLILI	
3.1. O'zbek badiiy matnlarda diskursning lingvopragmatik mohiyati.....	56
3.2. Ingliz badiiy matnlarida diskursning lingvosemantik tadqiqi.....	64
3.3. Ingliz va o'zbek badiiy matnlarida diskurs yuklamalari tahlil obyekti sifatida.....	69
III bob yuzasidan xulosalar.....	75
 Umumiy xulosa.....	77
 Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati	81

KIRISH

Respublikamizning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi tilimiz rivoji uchun keng imkoniyatlar ochib berdi va tilimizni har tomonlama rivojlantirish davlat ahamiyatiga molik masalaga aylandi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach esa, ta'lim tizimini rivojlantirishga bo'lgan e'tibor muhtaram Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan amalga oshirilgan islohotlarning ustuvor vazifasiga aylandi. Xususan, yurtimizning jahon hamjamiyatidan muhim o'rin egallashi uchun yo'lga qo'yilgan siyosiy, madaniy va iqtisodiy hamkorliklar chet tilini o'rganilishiga muhim turtki bo'lib kelmoqda. Darhaqiqat, til vositasida axborot almashinuvi, o'zaro hamkorlik, kommunikatsiya yuzaga keladi. Ilm-fan, texnikaning gurkirab rivojlanishi va ilmiy-texnik axborotning kengayishi munosabati bilan tilshunoslik va tarjimaning amaliy ahamiyati ham oshib bormoqda. Shu boisdan ham ta'lim sohasi va til o'rganish bugungi kunda ham jamiyatimizning asosiy sohasi sifatida alohida e'tirof etilmoqda. Shunga ko'ra O'zbekiston Respublikasi hozirgi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 3-may kuni Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanidagi Ishoqxon Ibrat majmuasiga tashrif chog'ida so'zlagan nutqlarida til o'rganishning ahamiyatini quyidagicha izohlaydilar: ***“Til bilish bu- boylik. Til bilgan inson dunyoni biladi, hech qachon kam bo'lmaydi. Ota-bobolarimiz shunday bo'lgan, bu bizning qonimizda bor. Yoshlarimizda shunday intilishni uyg'otishimiz kerak”*** [1.1],- degan edilar prezidentimiz. Bundan tashqari mamlakatimizda kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishib, iqtisodiyot va ijtimoiy soha tarmoqlarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, bakalavr va magistrnlarni tayyorlashda ish beruvchilarning joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini inobatga olgan holda fan va ta'lim yo'nalishlari uyg'unligiga erishish, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari mehnatidan foydalanishni yaxshilash uchun bugungi kunda yurtimizda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, chet tillarni o'rganishni yanada takomillashtirish, yosh izlanuvchi, innovatsion g'oyalarni targ'ib etuvchi

tilshunos olimlarga imkoniyatlar yaratish bugungi kunning dolzarb masalasi sifatida qaralmoqda.

Darhaqiqat, xorijiy tillarni, jumladan ingliz tilini har tomonlama chuqur o'rganish, ayniqsa, bu tilni o'zbek tili bilan qiyosiy tavsiflash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Hozirgi zamon tilshunosligida biz turli lingvistik yo'nalishlar asosida tilshunoslik fanini yuksalishiga guvoh bo'layapmiz. Lingvistikaning yo'nalishlaridan biri bo'lgan pragmatika sohasi, tilshunoslikda XX asr oxirlaridan boshlab antroposentrik paradigma to'g'risidagi qarashlarning yetakchilik qilib kelishi bir qator fanlararo sohalar, jumladan lingvopragmatikaning paydo bo'lishi uchun zamin hozirladi. Tilshunoslikning bugungi kundagi zamonaviy yo'nalishlarida bu ilmiy soha alohida qiziqish uyg'otadi. Lingvopragmatika tilning real sharoitda mavjudligi va vazifa bajarishi bilan bog'liq muammolar to'g'risida bahs yuritadi, boshqacha aytganda, pragmatika kontekst tarkibidagi ma'noni ifodalaydi. Bundan tashqari pragmatik tilshunoslik tadqiq predmeti nutqiy akt nazariyasi, deysis nazariyasi, diskurs nazariyasi, pragmasemantika, pragmastilistika kabi sohalarining shakllanishiga zamin yaratdi. Zamonaviy manbalar lingvopragmatikani nutqda lisoniy belgilarning amal qilishini «belgi - belgidan foydalanuvchi» munosabati yo'nalishida o'rganuvchi tilshunoslik sohasi deb belgilaydi. Semiotika bilan bog'liq masalalarni tadqiq etgan Ch.Morris mazkur fan doirasida uch bo'limni ajratadi: belgilar o'rtasidagi munosabatni o'rganuvchi sintaktika (sintaksis), belgi va belgilangan o'rtasidagi munosabatni o'rganuvchi semantika, belgi va uni qo'llovchi (interpretator yoki uni tuzuvchi va tushunuvchi) o'rtasidagi munosabatni o'rganuvchi pragmatika [49,287] deb yozgan edi. Bundan tashqari pragmatizm yo'nalishining asoschilaridan Ch.Pirs va Ch.Morris pragmatikani lisoniy birliklardan ma'lum nutqiy vaziyatlarda belgilangan kommunikativ maqsadda foydalanuvchi va mazkur muloqot jarayonida qo'llanuvchi belgilar munosabatini o'rganuvchi fan sifatida izohlaydi [50,286].

Lingvopragmatikaning nazariy asoslari XX asrning 60-yillarida Oksford maktabi tilshunos-faylasuflari B.Rassel, Dj.Ostin, X. Grays, Dj. Syorl kabi tilshunos olimlar tomonidan ishlab chiqildi va ularning xizmatlari hamda 1969 yilda “Nutqiy aktlar. Til falsafasi ocherki” kitobining nashr etilishi bilan pragmatik nazariya yangi bosqichga ko’tarildi. O’tgan asrning 60-70 yillarida lingvistik pragmatikaning fan sifatida shakllanishi va amal qilishini tadqiq etishga imkoniyatlar yaratildi.

Mazkur ilmiy tadqiqot ishining mavzusi ham pragmatikaning sohasi bo’lgan diskursning badiiy matnlardagi holati va shu holatning turli nuqtai nazarlardan o’zbek va ingliz tillaridagi aks etishi bo’lib, ishning mohiyati tegishli rejalar, ilmiy materiallar, badiiy va publitsistik matnlar asosida tadqiq va tahlil qilindi. Ilmiy ishning tashkil qilinishi diskurs tushunchasining mohiyatini izohidan boshlanadi. Bu kabi o’rganish natijalaridan biz ingliz va o’zbek matnlar orasidagi farqlarni topish, ularni solishtirish va diskurs holatini aniqlashimiz mumkin. Shuningdek, til materiali sifatida o’zbek va ingliz tillaridagi syujet jihatidan bir-biriga biroz bo’lsada o’xshash badiiy asarlar tanlangan bo’lib, ularda diskurs holatini ichki ma’naviy jihatlarini o’rganib, har ikki tildagi asarlarda diskursning ahamiyati, funksiyalarini aniqlashga ham imkon beradi.

Mavzuning dolzarbligi. Diskurs mavzusiga doir ko’lab o’rganilgan tadqiqotlar mavjud, ammo lingvopragmatik tahlili borasida hali bajarilishi lozim bo’lgan ishlar ko’lami keng. Hozirgi kunga qadar diskursning ingliz va o’zbek tillaridagi badiiy matnlardagi holati qiyosiy o’rganilganligiga qaramay, ko’pgina tadqiqotlar mazkur sohada hozirda ham olib borilmoqda. Shuningdek, ingliz va o’zbek badiiy asarlaridagi diskursning holati turli manbalar hamda publitsistik materiallar asosida sistematik tartibda to’laligicha keng o’rganilmagan. Mavzuning bu doirada o’rganilishi esa ikki xalq vakillariga ham birdek qiziqarli, lingvistik va sotsiologik manba sifatida xizmat qiladi. Mazkur dissertatsiya ishimizda ingliz va o’zbek badiiy matnlaridagi diskursning foydalanilishiga doir ma’lumotlarni topib, ularni tahlil qilish hozirgacha yoritilmagan ko’pgina

jumboqlarning yechimini topish va ularning izomorflik va allomorflik xususiyatlarini aniqlash bilan aloqador masalalarini aniq tasavvur etishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Ilmiy mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Zamonaviy tilshunoslikda yangi yo‘nalishlar sifatida tan olingan pragmatik va kognitiv tilshunoslikning asosiy muammolaridan biri diskurs masalasidir. Diskurs tadqiq qilinishi bo‘yicha juda ko‘p tilshunoslar ilmiy ishlar olib borib, ba‘zilari o‘xshash, ba‘zilari farqli qarashlarini bildirib kelishgan. Masalan, xorij olimlaridan J.J Gumpers, Voloshinov.V.N, J.R. Trillo, Makarov M.L, Vinogradov V.V, Galperin I.R, T. A. van Deyk, B. Rassel, Dj.Ostin, X. Grays, Dj. Syorl, Ch. U. Morris, Ch. Pirs, Jacob L.May, Arutyunova N.D, Matveeva T.V, Starichenok V.D, diskursni bir nechta darajada ko‘rib chiqishni va keng ma’noda diskursga kompleksli kommunikativ voqea, tor ma’noda esa kommunikativ harakatning yozma yoki nutqiy verbal mahsuloti sifatida qarash lozimligi haqida fikr bildiradi. Bu borada o‘zbek tilshunoslari, Sh.Safarov, Ashurova, B. Yo‘ldoshev, Z. Pardayev, Mahmudov N, Irisqulov M, Hojiev A kabi olimlar ham pragmatik tilshunoslikda diskurs va uning tutgan o‘rni haqida o‘z tadqiqotlarida asoslab berishgan.

Ilmiy tadqiqot ishining asosiy maqsadi: Ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida diskursning holatini aniqlash, diskursning ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida tutgan o‘rni, qo‘llanilish holatlari, badiiy matnning diskursiv rakursi, badiiy matnning lingvopragmatik, lingvosemantik hamda lingvostilistik yondashuvlararo qiyosiy tadqiq etish tadqiqot ishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqot ishining vazifalari: Tadqiqotning maqsadidan kelib chiqqan holda, mazkur ishda o‘rganilayotgan masalaning quyidagi jihatlarini yoritish ko‘zda tutilgan:

- tilshunoslikda diskurs tushunchasining ilmiy mohiyatini yoritish;
- diskursning fandagi ahamiyatini izohlash va talqin qilish;

- diskurs va matnning o'zaro uyg'unlashuvini ochib berish
- ingliz va o'zbek badiiy matnlarida diskursning lingvopragmatik, lingvosemantik va lingvostilistik mohiyatini tadqiq etish;
- o'zbek badiiy matnlarida diskurs va diskurs kategoriyalarining qo'llanilishini aniqlash,
- ingliz badiiy matnlarida diskursning qo'llanilish holatlarini o'rganish;
- o'zbek va ingliz badiiy matnlaridagi diskurs holatini aniqlash va ularni qiyoslash yordamida ikkala tillarda diskursning xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Ilmiy tadqiqot ishining obyekti va predmeti: Ingliz va o'zbek badiiy matnlarida diskurs holatini aniqlash tadqiqot ishining obyekti tashkil qiladi. Tadqiqotning predmeti esa ingliz va o'zbek badiiy matnlarida diskursning qo'llanilishining o'xshash bo'lgan va farqli tomonlarini topib tadqiq qilish hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqot ishida qo'llanilgan asosiy metodlar. Ilmiy tadqiqot ishida qo'llanilgan lingvistik terminlarning izohlanishi uchun lug'at definitsiya analiz metodi, o'rganilgan konseptning semantik xususiyatlarini diskursning tarkibiy qismlarining tahlili asosida o'rganish uchun komponent-tahlil metodi, o'rganilgan xususiyatlarni guruhlash, tasniflash uchun klassifikatsiya metodi, ikki til o'rtasidagi farqli va o'xshash tomonlarni ochib berish uchun qiyosiy-chog'ishtirma tahlil metodlaridan foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi. Pragmatik tilshunoslik zahirida so'nggi yillarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda diskursning hali ochilmagan yangi qirralari, o'ziga xos xususiyatlari keng ko'lamda yoritib kelinmoqda. Shunga qaramay, pragmatik tilshunoslik va uning birliklaridan biri bo'lmish diskurs tushunchasining hali o'z tadqiqini kutayotgan xususiyatlari borligini inkor etib bo'lmaydi, jumladan, diskursning badiiy matnlardagi holati xususiyatlarining o'rganilishi fikrimiz isbotidir. Bugungi kunga qadar, ikki til ya'ni ingliz va o'zbek badiiy matnlarida diskurs va diskurs markerlarining ingliz va o'zbek badiiy

matnlarida ishlatilish holatlari, ular o'rtasidagi farq va o'xshash xususiyatlari qiyosiy to'liq holda tahlil qilinmagan. Bu ilmiy ish orqali bizga ikki xalq vakillarining badiiy asarlaridagi diskursning holatini aniqlashimizga, ikkala tilda qay darajada qo'llanilishini hamda ularning o'xshash va farqli tomonlarini bilib olishimizga imkon yaratadi.

Ilmiy tadqiqot ishining nazariy va amaliy ahamiyati: Mazkur ishda diskursning kategoriyalari va markerlarini, diskurs va matnning o'zaro uyg'unligini aniqlash, ularning fandagi ahamiyatini tadqiq etish tadqiqot ishlarining nazariy asosi bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot tahlillaridan yuzaga keladigan ilmiy xulosalar pragmatik tilshunoslik va o'zbek lingvomadaniyatining nazariy asoslarini yanada takomillashtiradi. Bundan tashqari ikkladi tildagi badiiy matnlarning o'zaro bir biriga o'xshash va farqli jihatlarini misollar yordamida yoritiladi. Ilmiy tadqiqot natijalari oliy o'quv yurtlarida pragmatika va lingvomadaniyatshunoslik, tarjimashunoslik, xususan badiiy matnlarni va publisistik matnlarni tarjima qilishda, foydalanishi uning amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Ilmiy tadqiqotning joriy qilinishi: Tadqiqotning nazariy xulosalaridan Chet tillari institutining filologiya, tarjima nazariyasi va amaliyoti hamda ingliz tili va adabiyoti fakulteti bakalavriat bosqichi talabalari "Diskurs tahlili", magistratura bosqichi talabalari esa pragmatika va matn lingvistikasi fanlaridan ma'ruzalar o'qishda, amaliy mashg'ulotlar o'tkazish jarayonida foydalanish mumkin.

Ilmiy tadqiqot ishi natijalarining nashr qilinganlik darajasi: Mavzu yuzasidan quyidagi ilmiy maqolalar tayyorlanib, nashr qilingan:

1. "Diskursning shakllanishida Presuppozitsiyaning roli xususida"
2. "O'zbek va Ingliz badiiy matnlarda diskursning qo'llanilish holatlariga doir"

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida Samarqand davlat chet tillar institutida

professor-o'qituvchilar ilmiy-nazariy anjumanlarida (2017 -2018) ma'ruzalar bilan qatnashildi.

Ilmiy tadqiqot ishining manbai sifatida asosan ingliz va o'zbek tillari izohli lug'atlari, badiiy, ilmiy va publitsistik turdagi matnlar tahlil uchun material sifatida qo'llanildi.

Ilmiy tadqiqot ishining hajmi va tuzilishi. Ilmiy tadqiqot ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 85 bet. Ilmiy ishning birinchi bobida diskurs haqida umumiy ma'lumotlar, olimlarning nazariy xulosalari jamlangan. Ikkinchi bobda matn va badiiy matnga urg'u berilgan bo'lib, matn va uning turlari, xususiyatlari hamda diskurs bilan o'zaro uyg'unligi haqida yoritilib berilgan . Uchinchi bobda esa ingliz va o'zbek matnlarida diskurs holati va ularning xususiyatlarining umumiy va farqli jihatlari, diskurs kategoriyalarining necha bor qo'llanilganligi jadvallar asosida ochib berildi.

I BOB. DISKURS HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

1.1.Diskurs tushunchasi va uning mohiyati

Zamonaviy tilshunoslikda yangi yo'nalishlar sifatida tan olingan pragmatik va kognitiv tilshunoslikning asosiy muammolaridan biri diskurs masalasidir. Hayotimiz mobaynida biz diskurs atamasiga ko'p bor duch kelamiz. Lekin ko'pchiligimiz uning asl mohiyatini tushunmaymiz. Diskurs talqinida tilshunoslikda xilma xil qarashlar mavjud. Aksar tilshunoslar diskursni (fransuzcha *discourse*, inglizcha *discourse*, lotincha *discursus* – harakat, uzluksiz almashinish, suhbat, so'zlashish) nutqiy faoliyat jarayoni hamda so'zlashish uslubi kabi mazmunlarda tushuntirishga harakat qiladi. Diskurs turli tilshunoslar tomonidan turlicha ta'riflanadi.

1960-yillar boshlarida antropolog Dell Hymes birinchilardan bo'lib diskurs tushunchasi va uning ahamiyati bilan qiziqdi. Olim Diskurs tushunchasini lingvistik atama sifatida o'tgan asrning o'rtalarida tilshunoslikka olib keldi. Dell Hymes fikriga ko'ra diskurs og'zaki nutqda bir birimiz bilan muloqot qilishimizdir. Bu mavzu unda kommunikativ hodisalar (xususan afsonalar va folklor) kelib chiqishini o'rganish mobaynida qiziqish uyg'otdi [11, 2]. Dell fikriga ko'ra diskurs bu faqatgina muloqotdir, ammo diskurs nafaqat muloqotni balki matn bilan ham o'zar uyg'unlikda sodir bo'ladigan holat hamdir.

A.Pardayev e'tirof etishicha diskurs bu so'zlovchi va tinglovchining o'zaro fikr almashish, bir-biriga ta'sir ko'rsatish maqsadida lisoniy va nolisoniy vositalardan o'zlari eng samarali deb hisoblagan shakl va turda amaliy foydalanish jarayoni. Diskurs bu – jarayon, insoniy faoliyat turi. U lisoniy va yuzlab nolisoniy omillarning mushtarak shaklda bir maqsad yo'lida voqelanishidir [16, 1].

Diskurs lotincha “**discursus**” - muhokama so'zidan olingan bo'lib, hissiy, bevosita, intuitiv, ya'ni muhokamatalab bilimdan farqli o'laroq, muhokama orqali

vosita bilan hosil qilinadigan mantiqiy dalil - isbotli bilim demakdir [2, 26]. Ushbu ta'rifda diskurs muhokama qilish, suhbat qilishdir deya ta'riflanadi.

Tilshunos Zveginsev g'arb tilshunosligida keng qo'llanilayotgan «diskurs» (inglizcha discourse; fran. Discours) tushunchasini dastlab lisonning gapdan yuqori turadigan sathi sifatida tahlil qildi. Lisoniy faoliyatda «markazga intiluvchi kuch» ning ta'siri mavjudligini e'tirof etgan V.A.Zveginsev, diskursni «bulutlar orqasiga yashiringan lisoniy hudud» deb hisoblagan va bu hodisani lingvistik metodlar vositasida tahlil qilish mumkinligiga to'liq ishona olmagan edi [35, 170]. To'g'rida, ob'ekt «bulut bilan qoplangan» bo'lsa va uni o'rganish metodi aniq bo'lmasa, qanday ilmiy bilish haqida so'z bo'lishi mumkin? Demak, bulutlarni quvish yo'lini topishimiz va yorug'likka chiqqan obyektning idrokini ta'minlovchi bilish usullarini izlash lozim. Shu o'rinda «Tilshunoslik qomusi»da ushbu hodisaga berilgan ta'rifni keltirmoqchiman «Diskurs–nolisoniy omillar (pragmatik, ijtimoiy-madaniy, ruhiy) bilan birgalikdagi matn; voqea kechishi nuqtai nazaridan qaralayotgan matn; maqsadli ijtimoiy harakat sifatida qaraladigan nutq» [29, 136-137]. Ushbu ta'rifda diskurs hodisasini aniqlashda «matn» va «nutqiy faoliyat» tushunchalariga bir xilda murojaat qilinayotganligini sezish qiyin emas. Umumiy qilib aytganda diskurs bu muloqot va insonning bir biri bilan fikr almashishi, kommunikativligi va informativligidir.

Golland tilshunosi T. A. van Deyk diskursni bir nechta darajada ko'rib chiqishni taklif qiladi. U **keng ma'noda** diskursga kompleksli kommunikativ voqea, **tor ma'noda** esa kommunikativ harakatning yozma yoki nutqiy verbal mahsuloti sifatida qarash lozimligi haqida fikr bildiradi. Ta'kidlash kerakki, T.A. van Deyk diskurs va matn o'rtasidagi farqni shunday belgilaydi: diskurs – actual aytilgan matn, ya'ni faol nutqiy harakat, matn esa til tizimiga yoki shakliy lisoniy bilimlarga tegishli fikrlarning mavhum grammatik tuzilishidir. Diskurs - aniq suhbat, aniqlik esa diskurs tushunchasi qo'llanadigan vaziyatga, matnga va obyektga ham birday taalluqlidir. Diskurs - suhbat turi [34, 372]. Deyk tomonidan

berilgan ta'rif aniq va tushunarli bayon etilgan. Ko'rinib turibdiki, Diskurs - suhbat, diskurs- muloqot va diskurs fikr almashishdir.

Diskurs haqida qimmatli fikrlar kognitolog tilshunos SH.Safarov tomonidan bildirilgan. Olim matn va diskurs muammolari xususida quyidagilarni yozgan: «Agarda matn va diskursning har ikkalasi ham inson lisoniy faoliyatining natijasi bo'lsa, ularni faqatgina zohiriy – formal ko'rsatkichga asosan «og'zaki» va «yozma» sifatlari bilan farqlash imkoniga gumonim bor. Xuddi shuningdek, ularning birini moddiy ko'rinishli hodisa, ikkinchisini bu xususiyatdan xoli ko'rinishda tasavvur qilish qiyin masala. Axir bularning ikkalasi ham natijali faoliyat mahsuli bo'ladigan bo'lsa, erishilgan natija moddiy ko'rinish olishi kerak-ku?[43, 247] Biz SH.Safarov tomonidan keltirilgan A.Kibrik, V.Plungyanlarning «diskurs – bir paytning o'zida ham lisoniy faoliyat jarayoni, ham uning (faoliyatning) mahsulidir» mazmundagi fikriga tayangan holda diskursni keng ma'noda, ammo oddiyroq, soddaroq tushunishga harakat qilamiz. Demak diskurs bu insonlarning o'zaro fikr almashinishi, muloqot qilishi, bir biriga turli ma'lumotlarni yetkazishi, ma'lumotlarni yetkazish uchun turli vositalardan foydalanishi, ikkala suhbatdoshga ham tushunarli bo'lgan jarayon diskurs hisoblanadi. Diskurs dialog ham monolog ham bo'lishi mumkin. Qisqa qilib aytganda, har qanday suhbat jarayoni yoki nutq bu diskursdir.

Tilshunoslikda u dastlab gap yoki nutqda bog'langan va kelishilgan oqibat sifatida tushunilgan bo'lsa, zamonaviy lingvistikada murakkab kommunikativ hodisa sifatida izohlamnoqda. Tilni pragmatik nuqtai nazardan tadqiq etishga bag'ishlangan ishlarda diskurs atamasi sakkiz xil ma'noda qo'llangan:

- 1) so'z muqobili;
- 2) frazalardan o'lchami bo'yicha ortadigan birlik;
- 3) nutq vaziyati hisobga olingan holda fikrkrning adresatga ta'siri;
- 4) suhbat;
- 5) nutqda so'zlovchi pozitsiyasi;

- 6) lisoniy birtiklardan foydalanish;
- 7) fikrning ijtimoiy yoki mafkuraviy cheklangan turi;
- 8) matn hosil bo'lish shartlarini tadqiq etishga mo'ljallangan nazariy qurilmalar [38, 37-64].

Diskurs janr kabidir. Nutqiy janr - tipik tuzilishi, lisoniy vositalardan foydalanishning o'ziga xosligi, aniq adresat, ma'lum kommunikativ maqsad va informativlik, imperativlik, etiketlik kabi jihatlari bilan ajralib turuvchi nutq turi hisoblanadi [47, 523].

Diskursning ijtimoiy tabiati

yangilikli diskurs

publitsistik diskurs

siyosiy diskurs

ilmiy diskurs

badiiy diskurs

baholovchi diskurs

kabi yangi tushunchalarning yuzaga kelishiga imkon beradi. Bu tushunchalarni biz har xil holatlarda qo'llashimiz mumkin. Diskursning yangilikligi, biz biror bir xabarni eshitamiz va uni suhbatdoshimizga yetkazamiz. Talqin va izohlarining xilma-xilligi diskurs tushunchasining ko'p qirrali va keng qamrovli ekanligini ko'rsatadi. Insonning nutq orqali amalga oshadigan barcha faoliyati diskursiv xarakterga ega. Nutqning ijtimoiy mohiyati matn bilan bog'langan bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlari matnning u yoki bu ko'rinishida namoyon bo'ladi. U aniq sotsiopragmatik matnda amalga oshiriladigan, murakkab maqsadga yo'naltirilgan nutqiy harakat sifatida bir tomondan, nutqning tarixiyli bilan, ikkinchi tomondan, ijtimoiyligi bilan, uchinchi tomondan, mafkuraviyligi bilan bog'liq. Ma'lum bir individual diskursning alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilishi nutqning lingvopragmatik tabiati to'g'risida mulohaza yuritishga imkon beradi.

Diskurs atamasi subyektiv, ijtimoiy-madaniy, shuningdek, stereotip, presedent (namunali) fikrlar, monolog va dialog ko'rinishidagi nutqiy faoliyat jarayonini ifodalovchi tushunchalarni qamrab oladi. Amalda, diskurs - bu matnning shakllanish usulidir. Diskurs ilmiy atama sifatida

- Sintaktik
- Semantik
- Pragmatik

xususiyatga ega. U sintaktik jihatdan ifoda plani, ya'ni strukturasi, semantik jihatdan mazmun-ma'no planiga, pragmatik jihatidan esa perlokutsiya - xabar planiga ko'ra turli fikrlar, nutqiy aktlardan tashkil topgan faoliyat sifatida tavsiflanadi.

Diskurs - bu til birliklarining ma'lum vaqtda va ma'lum joyda ma'lum maqsad bilan qo'llanilishi, ularning izchil bog'lanishidir [33,13].

1.2.DISKURSNING ASOSIY KATEGORIYALARI

Har qanday matn diskursning funksional tahlili ifodaning ma'noviy asoslari diskurs kategoriyalari bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Har birimiz nutqimiz, suhbatimiz mobaynida ko'plab diskurs kategoriyalaridan foydalanamiz, ammo biz ularni aynan qaysi kategoriya va nima uchun qo'llanilayotganiga ahamiyat bermaymiz. diskurs kategoriyalari nutq ta'sirchanligini oshirishga va mazmunning yuksalishida muhim ahamiyat kasb etadi. Diskurs nazariyasining muhim tushunchalari sifatida

- Propozitsiya
- Presuppozitsiya
- Eksplikatura
- Implikatura
- Inferensiya
- Referensiya

kabilarni ko'rsatish mumkin. Bu kategoriyalar haqida turli fikrlar bor. Turli tilshunos olimlar diskurs kategoriyalari haqida o'z fikrlarini bayon qilishgan. Tilshunos olimlar diskursni quyidagi kategoriyalarini bayon qilganlar va ularni quyidagicha izohlaydilar.

Propozitsiya – Z. Pardayevning ta'rificha qator gaplarning paradigmatic qayta o'zgarishlar bilan aloqador, fikrlarning tasdiq, buyruq, so'roq kabi turli kommunikativ vazifalari bilan o'zaro bog'liq invariant ma'nolaridir. U nutqiy vaziyatni ifodalab, tildagi lisoniy hodisalar vositasida tavsiflash, so'zlovchi yoki yozuvchini fikr ifodalashda asosli dalillar bilan qurollantirish kabi vazifalarni amalga oshiradi [18, 32].

Mahmudov «gap semantikasi obyektiv va subyektiv ma'nolar munosabatidan tashkil topgan nisbiy butunlik degan qarashga moyillik bildiradi. Uning fikricha, Gapning obyektiv mazmuni deganda, gap orqali ifodalangan va inson ongida aks etgan obyektiv voqelikni tushunadi, ya'ni so'zlovchi tinglovchiga biror xabarni yetkazganida, tinglovchi tushungan va tasavvur etgan holat hisoblanadi. Bu voqelik sintaktik semantikaning nominativ yo'nalishida propozitsiya atamasi bilan nomlanadi [14, 29].

Propozitsiya ma'lum gap semantikasida o'z ifodasini topgan muayyan voqea, hodisa hisoblanadi» [15, 29]. Umuman olganda, propozitsiya bilish jarayoni bilan bog'liq baholash xarakteridagi tushuncha bo'lib, semantik jihatdan ifodalanayotgan fikrning voqelik faktlariga mos kelishi yoki kelmasligini aks ettiradi.

A.V.Zelenshikov esa propozitsiyaning quyidagicha ta'riflaydi,

1) haqiqiy ma'noni

2) gapning mazmuni bo'la oladigan mavhum mohiyatni

3) so'zlovchining intensional (mental) holatini ifodalovchi sifatida qarab, shunday xulosaga keladiki, propozitsiya har qanday holatda ham tilning funksional tabiatini

aks ettiradi va gapda deskriptiv yoki propozitsional konsept modusi sifatida ifodalanadi. Fikrning haqiqiy ma'nosi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan propozitsiyaning namoyon bo'lish usulini belgilashda so'zning voqelikka mos kelish yoki kelmasligiga bog'liq holda rost yoki yolg'on sifatida qaralishi, amalga oshish yoki oshmasligiga e'tibor beriladi [36, 208-209].

Tilshunos olim, Sh. Safarov ta'biricha esa propozitsiya bilimni yetkazishning o'ziga xos shakli bo'lib, u axborotni to'plash va saqlashning kognitiv strukturalari qatoriga kiradi [42, 119] Ammo propozitsiya hodisasi tahlilida uning axborot tashish xususiyati bilangina chegaralanib qolmaslik darkor. Zero, bu holda ushbu hodisaning kommunikativ belgilari chetda qoladi. Masalan, quyidagi nutqiy tuzilmalarni olaylik:

- a) Nigora menga pulni berdi.
- b) Nigora menga pulni beradimi?
- c) Nigora, menga pulni ber!
- d) Ishonamanki, Nigora menga shu pulni beradi (bergan).
- e) Nigora menga ushbu pulni bergan bo'lishi kerak. Bu qatordagi tuzilmalar yagona propozitsiyaga ega, ya'ni "pul", "Nigora", "men" term va aktantlari hamda "bermoq" predikati vositasida tuzilayotgan ushbu tuzilmalarning semantik strukturasi yagona, ammo ushbu propozitsiya muloqot matnida faollashib turli pragmatik mazmun bilan boyiydi. Mazmunning kommunikativ maqsadiga binoan bunday kengaytiruvchi vositalar qatoriga modallik va zamon-aspekt ko'rsatkichlari ham kiradi.

Demak, Propozitsiya aytilgan xabar yoki fikrning so'zlovchi va tinglovchi ongida shakllanishi va tasavvurning paydo bo'lishi va ma'noning saqlaninishi mazmunning esa pragmatik semantik jihatdan o'zgarib borishi hisoblanar ekan.

Presuppozitsiya. Diskurs kategoriyalaridan biri presuppozitsiya soʻzi ingliz tilidagi “presuppose” feʼlidan olingan boʻlib, “oldindan taxmin qilmoq” degan maʼnoni bildiradi. Pragmatikaga oid manbalarda esa, presuppozitsiya “soʻzlovchining biror bir hodisani gapning aytilishidan oldin taxmin qilishi” deya taʼriflanadi. Presuppozitsiya tilshunoslikka oid adabiyotlarda inferensiyaning xususiy koʻrinishlaridan biri sifatida qaraladi va bunda ifodalanayotgan fikr – hukmning haqiqiy yoki oʻrinli ekanligi eʼtiborga olinadi. Buning uchun esa muloqot ishtirokchilari voqelik, kechayotgan yoki xabar qilinayotgan hodisa haqida biror bir umumiy maʼlumotga ega boʻlishi kerak. R.Stolneyker taʼbiriga koʻra, “Presuppozitsiya talab qilinayotgan lisoniy faoliyat ijrosidan oldin implitsit nazarda tutilgan presuppozitsiyadir” [50,130-150]. Masalan, “*Nargiza imtihondan aʼlo baho oldi*” va “*Nargiza imtihondan yiqildi*” qabilidagi gaplarni matnda qoʻllash va ularni tushunish uchun soʻzlovchi hamda tinglovchiga imtihonning mavjudligi yoki mavjud emasligi bir xilda maʼlum boʻlishi kerak. Demak, Stolneyker fikriga koʻra agar gapirilayotgan gap soʻzlovchi va tinglovchiga maʼlum boʻlmasa unda presuppozitsiya maʼlum boʻlmay qolishi mumkin. Bizningcha, presuppozitsiya tinglovchi va soʻzlovchi soʻzlashayotgan vaziyatda maʼlum signal soʻzlar asosida yoki sanalar asosida ham maʼlum boʻlishi mumkin. Masalan, “*She has broken her hand again*” – *U yana qoʻlini sindirdi* . Ushbu gapda soʻzlovchi tinglovchiga maʼlumot berayotganda “yana ”soʻzi orqali qoʻlni yana bir bor qayta singanligini ifodalangan. Bundan koʻrinib turibdiki, ushbu gapning presuppozitsiyasi “*She she broke her hand before*” yaʼni “U avval ham qoʻlini sindirgan “. Yana bir misol, “*Biz kecha bayram nishonladik* ” ushbu gapda sanaga eʼtibor bergan holda biz qaysi bayramni nishonlaganligini taxmin qilishimiz mumkin. Demak, presuppozitsiya tinglovchi va soʻzlovchiga maʼlum boʻlmagan holatlarda ham maxsus soʻzlar orqali aniqlab olinishi mumkin ekan.

Presuppozitsiyaning *yashirin hukm, tagmaʼno* bilan bogʻliq ekanligini bundan yuz yillar oldin nemis mantiqshunosi G.Frege aytgan edi [51,32]. Haqiqatdan ham “*Martinning xolasi 2 ta mashina sotib oldi* ” gapini aytish uchun soʻzlovchi

“*Martin*” ismli bolaning xolasi borligini bilishi kerak. Bundan tashqari, soʻzlovchi Martinning xolasi borligini va u mashina sotib olishga yetarli mablagʻga ega ekanligini ham bilishi mumkin. Bu maʼlumotlarni beruvchi presuppozitsiyalar sohibi soʻzlovchidir. Gap esa Martinning xolasi nimanidir sotib olganligi, 2 ta mashina sotib olganligi, xarid qilingan mashinalar 1 ta emas 2 ta ekanligi haqidagi maʼlumotlar hisoblanadi. Maʼlumotlarga koʻra soʻzlovchi 2 turdagi maʼlumotlarni taxmin qiladi. Ular

Shared(ulashilgan maʼlumot)

a non-shared, new (ulashilmagan, yangi)

Masalan, “*Tom did a class project on environment again*”- gapi shared maʼlumotga misol boʻla oladi. Ushbu aytilgan gapda soʻzlovchi ishni bajargan shaxsni allaqachon biladi va u tinglovchi ishni bajargan shaxsni (Tom) bilishini ham taxmin qiladi. Bundan koʻrinib turibdiki, ishni bajargan shaxs soʻzlovchiga ham, tinglovchiga ham maʼlum, ammo soʻzlovchi yana shuni ham, yaʼni Tomning bundan keyin ham yana shu ishni bajarganini biladi. Yana bir misol: ***We have passed exam-biz imtixon topshirdik*** gapi esa non-shared maʼlumotdir, chunki bu xabar soʻzlovchiga ham tinglovchiga ham endi maʼlum boʻldi.

Bundan koʻrinib turibdiki, malumotning 2 turi shared va a non-shared, new turlari mavjud ekan va gaplarimizning qaysi turga kirishini esa biz gapning tuzilishi va vaqti va holatidan kelib chiqqan holda aniqlar ekanmiz.

G.Yule ham presuppozitsiyaning gap tarkibidagi maʼlum lugʻaviy birliklar va sintaktik tuzilmalar bilan bogʻliq ekanligiga tayangan holda leksik va strukturaviy presuppozitsiyalarni farqlashni taklif qiladi [28, 28]. Yule aytganidek, baʼzan lugʻaviy birliklar ham presuppozitsiyaning namoyon qilishi mumkin. Masalan,

(a) «He gave up running- U yugurishni tashladi»,

(b) «We began learning English- biz ingliz tilini oʻrganishni boshladik»,

(v) «He is late again- U yana kechikdi» gaplarining presuppozitsiyalari

(a) «He used to run- u yugurar edi»,

(b) «We did not learn before-oldin o'rganmagan edik»,

(v) «U oldin ham kechikkan edi» tarzida ekanligini biz faqatgina «tashlamoq», «boshlamoq», «yana» lug'aviy birliklari qo'llanishiga tayanib aniqlaymiz. Strukturaviy presuppozitsiya (structural presupposition) esa masalan, quyidagi so'roq gaplarda namoyon bo'ladi:

(g) « When did he leave?- U qachon ketdi?» = «he left -u ketgan»;

(d) «Where did you buy your bicycle? -Velosipedni qayerdan sotib olding? » «you bought a bicycle- Sen velosiped sotib olgansan». Ushbu hukmlarning shakllanishi so'roq olmoshli struktura qo'llanishi bilan bog'liqdir. Tilshunos olim Sh.Safarov presuppozitsiyaning quyidagi turlarini bayon etgan: ekzistensial, faktiv, nofaktiv, leksik, strukturaviy va kontrfaktiv turlarini bayon etgan [44, 123-124].

Haqiqatdan ham, presuppozitsiyaning turlarini biz nafaqat nutqimizda, balki badiiy asarlarda ham kuzatishimiz mumkin.

Ekzistensial : “*Mr. Darcy danced only once with Mrs. Hurst*” ushbu gapda presuppozitsiya “ *Mr. Darcy mavjud*”

Faktiv: “*He regrets what he has done. = u qilgan ishidan afsuslanadi*” presuppozitsiya ” *he has done* «nimadir qildi»

Nofaktiv: “*I wish he would manage everything-u hamma narsani uddalashini hohlayman* presuppozitsiya ”*he cannot manage anything- u hamma narsani uddalay olmaydi*”

Leksik: “*She managed to write, as she hoped,- u o'zi hohlagandek yozishni uddaladi*»” presuppozitsiya “*He tried to write – u yozishga harakat qildi*”

Strukturaviy: “*When did my excellent father die? =mening ajoyib otam qachon vafot etdi?*” presuppozitsiya “*He died =U o'ldi*”

Kontrfaktiv “*If I weren’t ill, =Kasal bo’lmaganimda (edi)*” presuppozitsiya “*I am ill =Men kasalman*”[5,131-177]

Demak, lingvistik birliklarning aniq va voqeyiy muloqot sharoitida qo’llanilishi pragmatik tahlil obyekti hisoblanadi. So’zlovchi va tinglovchi munosabati nutqiy muloqot sharoitida yuzaga keladi. Presuppozitsiya matnning va umuman turli ko’rinishdagi nutqiy tuzilmalarning mazmunini belgilovchi hodisalardan biridir. Nutqiy jarayonda biz presuppozitsiya hodisasidan ko’p bora foydalanamiz. Presuppozitsiya gaplarni ma’no jihatdan tushunib, anglab yetish, ma’noning o’zi mohiyatini saqlab qolishi hisoblanadi, ya’ni birinchi gapning davomini hijjalab tushuntirish emas, gap mazmunidan tushunib olish ma’nosini ilgari suradi. Ba’zan biz fikrimizni to’liq bayon eta olmaymiz shunday holatlarda presuppozitsiya bizga oldindan fikrimizni tushunib olish va nutqimiz yanada tushunarli bo’lishini ta’minlab berishga xizmat qiladi.

Diskurning kategoriyalardan yana biri **Implikaturadir**. Ba’zan so’zlovchilar fikrlarini ochiq bayon qilishga qiynalishadi va yashirin ma’noni qo’llashga to’g’ri keladi. Masalan

- *Would you like to go to party?*=*tadbirga borishni xohlaysizmi?*

-*I have to work* = *Ishlashim kerak*

Quyidagi gapda “Yo’q bormayman” deb qo’pollik bilan aytish o’rniga “ishlashim kerak” deb rad etish ko’proq muloyimlikni ifodalaydi. Implikaturani matn pragmatikasiga oid hodisa sifatida qarashni birinchilardan bo’lib H. Grays taklif qildi. U ham o’z ustoz J.Ostindek Harvard universitetida o’tkaziladigan «Uilyam Jeyms o’qishlari» dasturida 1967 yilda o’qigan ma’ruzalarida ushbu tushunchani qo’lladi. Yuqorida aytilganidek, muloqot jarayonida lisoniy birliklarning ishlatilishi ma’lum tamoyillar, qoidalarga asoslanadi, ma’lum sharoitlarda so’zlovchi ataylab ushbu tamoyillarga amal qilmasligi mumkin. Bunday maqsadli «qoida buzilishi» natijasida semantik xulosa va presuppozitsiyaga mos

kelmaydigan mazmun, ma'no hosil bo'ladi. H.Grays matnda hosil bo'ladigan ko'chirma, yashirin ma'noni implikatura hodisasiga qaram deb hisoblaydi [6,41-58]. Er va xotin o'rtasidagi quyidagi mikrodialogni olaylik:

- ✓ *“Zargarlik do‘koniga kirib o‘taylik, kecha yoqut ko‘zli uzuk ko‘rgandim.”*
- ✓ *Pulim kamroq.*

Muloqot jarayonida anglashiladigan implikatura mazmuni – «Hozir do‘konga bora olmayman» yoki «Do‘konga borish istagim yo‘q». Ushbu misoldagi kommunikativ implikaturaning pressupozitsiya hodisasiga yaqin turishi ko‘rinib turibdi. Ammo bu hodisalar o‘zaro farq qiladi. Implikatura doimiy bo‘lmagan, matnda tez o‘zgarib turadigan, hatto yo‘qolishi mumkin bo‘lgan ma'no, mazmun elementidir. Presuppozitsiya esa, aksincha, matnda yo‘qolmaydigan, doimiylik xususiyatiga ega bo‘lgan mazmuniy hodisadir. Bu ikki hodisaning yana bir farqi shundaki, presuppozitsiya ko‘pincha lisoniy shakl bilan bog‘liqdir, implikatura butunlay ma'no doirasiga kiradi va lisoniy shaklning o‘zgarishi unga qariyb ta’sir o‘tkazmaydi, inferensiya kabi turli kategoriyalar ishtirok etadilar. G.P.Grays nazariyasida konvensional implikatura qo‘llanilgan so‘zlarning ma'nosiga qarab belgilanadi, Kommunikativ implikatura esa nutqiy vaziyatga bog‘liq holda mo‘ljallangan va nazarda tutilgan fikrlarni ifodalashda ma'noli chekinishga qarab belgilanadi deya fikr bildirgan [32, 217-237]. Kommunikativ implikatura diskursda implitsit ma'lumotning boshqa turlaridan farqlanuvchi bir qator belgilarga ega. Ular quyidagilar:

- ✓ fikr ma'nosidan ularning miqdori chiqariladi;
- ✓ ular presuppozitsiyadan farqli ravishda fikr ma'nosidan ajralmas hisoblanadi;
- ✓ ular konvensional emas, shuningdek, lisoniy shaklning konvensional qismi hisoblanmaydi.

Turli mantiqiy-semantik amallar asosida mazmuniy xulosalarga erishishning yana bir yo‘li so‘zlovchi «nimani nazarda tutayotganligini» ehtimol qilish va anglashdir. Bunday usul **inferensiya tahlili** (conversational inference) deb ataladi.

Inferensiya — bu kognitiv tahlil bo'lib, adresant nutqida ko'zda tutilgan maqsad haqida ma'lumotga ega bo'lmagan adresat fikr ma'nosini to'ldiradi. Shakliy intensiyaga mantiqiy- xulosa, semantik presuppozitsiya va konvensional implikaturani kiritish mumkin. Bunda deduktiv intensiya xulosa chiqarishning ma'lum turiga asoslanishini, kontekstning ijtimoiy-madaniy, kognitiv, perseptiv va me'yoriy darajalarda kengayishl induktiv shartlanganligini hisobga olish kerak. Masalan, «Qish keldi» gapini eshitib, so'zlovchi «Havo sovuq, issiq kiyimlaringni tayyorla» mazmunidagi maslahatini bermoqchi degan xulosaga kelish mumkin. Ammo bu xulosa bor-yo'g'i ehtimol, balki so'zlovchi «Uyni isit» demoqchidir. Shuning uchun bo'lsa kerakki, M.Makarov inferensiyaning deduktiv va induktiv mantiqiy amallar asosida bajarilishi mumkin bo'lgan ikki turini farqlash lozimligini uqtiradi [40, 125-127]. Deduktiv amal asosida erishiladigan xulosa quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

- 1) *Qo'ng'iroqqa hech kim javob bermayotgan bo'lsa, demak, uyda hech kim yo'q.*
- 2) *Qo'ng'iroqqa hech qanday javob yo'q.*
- 3) *Uyda hech kim yo'q.*

Induktiv inferensiyani va ehtimoldagi xulosaning misoli:

- 1) *Abbos maktabga ketdi.*
- 2) *Abbos – maktab o'quvchisi.*

Deduktiv va induktiv amallar asosida farqlanadigan mazmuniy inferensiyalarni farqlashda H.P.Grays ehtimol qilinayotgan xulosani inkor qilish mumkin emasligi amaliga tayanishni maslahat beradi.

Referensiya hodisasi ham denotativ semantika doirasida talqin qilinadi va an'anaga binoan nomlovchi lisoniy birliklarning borliqdagi obyektga munosabati, uning bilan bog'liqligi sifatida tavsiflanib kelinmoqda. Aslida, lisoniy nomni voqelik bilan bog'lashda so'zlovchining (yoki lisondan foydalanuvchi shaxsning)

maqsadi, lisoniy faoliyat niyati muhim o‘rin egallaydi. Semasiologlar doirasida mashhur bo‘lgan «Semantika» (Semantics) risolasi muallifi J.Layonzning qayd etishicha, so‘zlovchi, referensiya harakatini bajarayotib, lisoniy iborani maqsadli tanlaydi va «referensiyaning aynan shu ibora mundarijasida ifodalaydi» [13, 177]. Diskursiv tahlil nazariyasi taraqqiyoti esa referensiyaning so‘zlovchi e‘ki yozuvchi ijrosidagi bir tomonlama harakat natijasi sifatida emas, balki ikkitomonlama, ya‘ni so‘zlovchi va tinglovchi ishtirokidagi «shaxslararo harakat» asosida hosil bo‘ladigan lisoniy faoliyat turi sifatida talqin qilishga sabab bo‘ldi. Biror bir so‘zni aytganimizda bu so‘z tinglovchi va so‘zlovchiga ham birdek ma‘lum bo‘ladi. Har qanday lisoniy faoliyat muloqot muhitini talab qiladi, lisoniy muloqot esa qanday ko‘rinishda kechishidan qat‘iy nazar, shaxslararo munosabatning namoyon bo‘lishidir.

Diskursni modellashtirish masalasi

Diskurs turli sathdagi lisoniy birliklar strukturasi bilan farq qiluvchi o‘z tuzilishiga ega. Diskursning asosiy tuzilish birliklari kommunikativ akt va kognitiv korrelyat (mazmuni boshqa tushuncha bilan munosabatdagina ochiladigan tushuncha)lardan iborat. Kommunikatsiya jarayonida aloqachilarning iyerarxik maqsadli harakatlari mavjudligi, voqelik xarakteri, aloqachilar faoliyati ko‘rinishlarining ma‘lum ssenariylari belgilanadi. Bundan tashqari, har qanday nutqiy hodisa har bir xalq madaniyatining kategorial va ramziy me‘yorlari, marosimlar, urf-odatlar, faoliyat usullari bilan bog‘liqligi diskurs jarayonini konvensional jarayon deb hisoblashga imkon beradi. Diskursiv model uchun asos bo‘ladigan ijtimoiy -madaniy mezonlar quyidagilar:

1. Ijtimoiy kontekst: shaxsiy, umumiy, yuzaki, qat‘iy, shuningdek, pozitsiya (o‘rni, mavqeyi, ahamiyat kabi); xususiyat (jins, yosh, axloq kabi); munosabat (muloqot jarayonidagi ustunlik, nufuz), vazifa (ota, uy bekasi, qoralovchi, hisobchi, bog‘bon kabi);

2. Nutqiy aloqa shakllari: munozara, muhokama, yig'ilish, dialog, eshitish, ommaviy kommunikatsiya va shu kabilar

3. So'zlashuv nutqi ko'rinishlari: suhbat, shaxsiy suhbat, bir piyola choy ustida suhbat, stol atrofidagi suhbat, kasbga oid suhbat, sotuvchi va oluvchi suhbat, konferensiya, munozara, dars, intervyu; konsultatsiya va boshqalar.

Diskursning modeli tuzilishini belgilovchi lingvistik mezonlar turlicha. Bunga nutqning matndagi ichki va matndan tashqari tavsiflarini kiritish mumkin.

1. *konstitutiv* (nisbiylik, mavzuga xoslik, uslubiy va tuzilish birligi, fikrning nisbiy tugallanganligi);

2. *janriy-stilistik* (uslubga xoslik, janr qonun-qoidalari, me'yoriylik, amplikasiya darajasi (kompressiya);

3. *semantik—pragmatik* (nutqning ma'lum obyektga qaratilganligi, muallif obrazi, ma'lumot belgisi, modallik, talqin, intertekstual mo'ljal;

4. *shakliy-struktur* (kompozitsiya, bo'laklarga ajralish, kogeziya). T.V. Shmelevaning ko'rsatishicha, janriy tavsif katta ahamiyat kasb etadi [52, 88-98]

5. *kommunikativ maqsad* (informativlik, imperativlik, etiketli va baholovchi nutqiy janrlar);

6. *muallif obrazi*;

7. *adresat obrazi*;

8. *o'tmish obrazi* (nutqiy hodisaning o'tmish bilan bog'liqligi);


9. *kelajak obrazi* (taklif, va'da, taxmin), diktum (voqeli);

10. *mazmun* (tushunchalar yig'indisi, ularning munosabati, vaqtinchalik istiqbol rejasi va diktum voqeani baholash);

11. *nutqiy janrning lisoniy gavdalanishi* [17, 37].

Yuqorida qator komponentlarning aytilganlardan xulosa qilish mumkinki, kommunikativ jarayonning amalga oshishi uchun bir qator komponentlarning o'zaro bog'liqligi va munosabati diskursning o'ziga xos modelini hosil qiladi. Bu

model asosida adresant va adresat hamda xabar munosabati yotadi. Bu munosabatga bog'liq holda muloqot ishtirokchilari tomonidan tegishli kanal tanlanadi, matnning janriy har xilligini ko'rsatuvchi kodlar belgilanadi hamda kommunikatsiya natijalari yangi nutqiy vaziyatga, ya'ni teskari aloqaga yo'l ochadi. Diskurs modelini zamonaviy kommunikatsiya nazariyasiga ko'ra quyidagicha sxemada ko'rsatish mumkin:



Diskurs nazariyasida muhim o'rin tutuvchi aloqaning tuzilish sistemasi quyidagi komponentlardan tashkil topishi mumkin:

- ✓ **Ma'lumot beruvchi aloqa.** Bunda adresant tomonidan obyektiv voqelikdagi yangiliklar, o'zgarishlar haqida ma'lumot beriladi.
- ✓ **Hamkorlik aloqasi.** Bu aloqa yordamida muloqot ishtirokchilarning o'zaro ta'siri ta'minlanadi.
- ✓ **Imperativ aloqa.** Bu aloqa direktiv diskurs doirasida buyurish, boshqarish intensiyasi tufayli qo'llaniladi;
- ✓ **Baholovchi aloqa.** Voqelik faktlariga munosabat bildirish zarurati baholovchi nutqiy aktlarni qo'llashga imkoniyat yaratadi.

Kommunikativ o'zaro ta'sir doirasida kontekstda nutq turlarining bu strukturasini quyidagicha tasniflash mumkin:

- xabar-eslatish (xabar, tasvirlash, tiklash va umumlashtirish);
- volyuntiv-direktiv (istak);
- nazorat-reaktiv (baholovchi reaksiya);
- emotiv (kommunikativ o'zaro ta'sirni ifodalovchi gap);
- manipulyativ (ijtimoiy ustunlik, pog'onali munosabat).

Diskurs modelida ma'lumotlarni idrok qilish va namoyon qilish jarayonini aniqlashda qo'llanadigan quyidagi iyerarxik uyushgan modullarni ajratish mumkin:

Konseptual modul- diskursning sujetli-mavzuviy strukturalarini belgilash va o'zlashtirilgan ma'lumot konseptual komponentlarning anglab yetilishi bilan bog'liq;

Kognitiv modul - ma'lumotning semantik ma'nosi samarali bo'lishini ta'minlovchi voqelikning vaqt ko'lamida kommunikantlar maqsadlarining psixologik jihatdan aynan bir xil shartlanganligi (kognitiv rezonans);

Xronologik (xronotopik modul) - diskursiv jarayonning vaqtinchalik tavsifini hisobga olishga mo'ljallangan;

Aksiologik modul - hosil qilingan matn diskursning rejalashtirilgan semantik-stilistik shakllarining aksiologik mahsulot sifatida amalga oshishiga qaratilgan;


Madaniy modul - adresant va adresatning madaniy o'zaro ta'sirini ta'minlovchi va yetkazilayotgan ma'lumotni tushunish va o'zlashtirish uchun kommunikantlarning lisoniy olam manzarasiga moslashishi;

Me'yoriy-konvensional modul - milliy madaniyat doirasida diskursning yetakchi me'yorlari: urf-odatlar, marosimlar, shuningdek, muloqotning ijtimoiy-madaniy boshqaruvga asoslangan chegaralanishlar bilan bog'liq kommunikativ kompetensiyadir.

Individual-shaxsiy modul- kommunikativ jarayon ishtirokchilarining arbob sifatida shaxsiy tavsiflariga munosabatda bo'lish (temperament, aql idrok yoki emotsional reaksiya ko'pligi, konservatizm yoki novatorlikka moyillik, o'ziga xoslikka intilish yoki taqlid va shu kabilar. Yuqorida keltirilgan modullar belgilangan mezonlar bo'yicha kommunikativ jarayonni modellashtirishda ko'zlangan harakatlarni hosil qiladi. Shular asosida kommunikantlarning diskursiv strategiyalari amalga oshadi hamda ularning ijodiy individualligi namoyon bo'ladi.

1.3. Diskurs va pragmatika

Diskurs muloqotchilarning o'zaro munosabatlari doirasida aloqa, xabar va ta'sir etishga qaratilgan maqsadli harakatlaridir. Unda tilning eng muhim ijtimoiy vazifalari o'z aksini topadi. Bu vazifalar diskursda turli nutqiy aktlar sifatida namoyon bo'ladi. Pragmatikaga doir tadqiqotlarda diskurs tuzilishining asosiy komponentlari sifatida so'zlovchi va uning nutqi qaratilgan shaxs, kommunikativ maqsad, nutq voqelanishining strategiya va taktikalari, muloqot matni va nutqiy vaziyat kabilar qayd etiladi. [53, 11-17] Ularga asoslangan holda diskurs tuzilishini



Quyida diskursning asosiy qismlari hisoblangan bu tushunchalarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Adresant. Adresant - diskurs tuzilishida ishtirok etuvchi markaziy figura. Chunki har qanday muloqot bo'lishi uchun dastlab adresatning bo'lishi talab etiladi. Uning kim bilan munosabatga kirishish istagiga ko'ra nutq qaratilgan subyekt tanlanadi. Bu adresat hisoblanadi. Adresant va adresat o'rtasidagi munosabatlar doirasida kommunikativ maqsad yotadi. Bu maqsadning amalga oshish yo'llari va usullari mavjud adabiyotlarda strategiya va taktika atamalari bilan yuritiladi. Tildagi temporal munosabatlar, obyektiv va subyektiv modallik, baho, emotivlik kabi tushunchalar so'zlovchiga bog'liq kategoriyalar hisoblanadi. Nutqiy aktlar tahlilida so'zlovchining muloqotdagi faol yoki nafaolliigi, tajovuzkorligi, xushomadgo'yliigi, romantikligi, oliyjanoblighi kabi bir qator nutqiy xulqni ifodalovchi xususiyatlari aniqlanadi. Ijtimoiy tabaqalar nutqidagi o'ziga xosliklar, guruhlardagi o'zaro muloqot xususiyatlari, ular orasidagi aloqa jarayonida qanday lisoniy birliklarning tanlanishi tufli ifoda usullarining paydo bo'lishiga olib keladi. Shu bilan birga bunday o'zgarishlar so'zlovchilarning yoshiga, jinsiga, ma'lumotiga, nutq sodir bo'layotgan muhitga ham bevosita aloqadordir [10, 159-160]. Shuning uchun baho diskursida so'zlovchining ijtimoiy mavqeyi, yoshi, jinsi kabilar uning lisoniy birliklardan tanlab olishiga ta'sir qiluvchi muhim omillar hisoblanadi.

Adresat - nutqiy akti tashkil etuvchi muhim komponentlardan biri hisoblanadi. Har bir xabar diskursda qo'llanish maqsadiga ko'ra adresatga bog'lanadi. Unda adresatga ma'lumot yetkazish, his-tuyg'ulariga ta'sir etish, munosabat bildirish, fikr ifodalashga yoki biror xatti-harakatni bajarishga undash kabi maqsadlardan biri ko'zda tutiladi. Xabarda adresatni harakatga undash yoki unga psixologik holatini o'zgartirish maqsadi amalga oshiriladi, chunki so'z nafaqat tushunchalarning ifodasi, shu bilan birga fikrlash, his-tuyg'ular va obrazlarni keltirib chiqarish vositasi ham hisoblanadi. Adresat va diskurs informativlik, ekspressivlik, nutqning aniqligi kabi kategoriyalar orqali bog'lanadi.

Tadqiqotlarda

yakka adresat

kollektiv adresat

ommaviy adresat

kvaziadresat

nomuayyan adresat

noma'lum adresat kabi turlar mavjudligi qayd etiladi [30, 356-367]. Nutqiy akt adresatga turli tomondan ta'sir qilishi mumkin. Maslahat, tahdid, ma'qullash, ayblov kabi harakatlar adresatning aql-zakovatiga mo'ljallanadi. Ishonch, shikoyat kabi nutqiy aktlarda adresat his-tuyg'ulariga, undash, ko'ndirish esa adresat irodasiga ta'sir etadi. Demak, nutqiy aktlarni adresatga qanday ta'sir qilishiga ko'ra ma'lum bir guruhlariga ajratish va ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash mumkin. Baholash diskursida adresatning funksional imkoniyatlari bir muncha cheklangan. U faqat axborotni qabul qilib oladi va uni o'z o'lchovlari asosida qayta ishlaydi. Konkret vaziyat, madaniy muhitda aloqa bog'lash qoidalari hamda me'yorlari kabilar haqida yetarli axborotning mavjudligi harakat amalga oshirishining sharti hisoblanadi. Bu ma'lumotlar presuppozitsiyani tashkil etadi. «Nutqiy kommunikatsiyaning to'g'ri va real amalga oshishi uchun kommunikantlar nutq momentiga qadar muayyan faktlar bilan tanish bo'lishi, umumiy vaziyat bilan bog'liq muayyan bilim xabardorlikka ega bo'lishlari lozim.

Kommunikativ maqsad. Kommunikativ maqsadning diskurs komponenti sifatida ifodalanish darajasi lingvostilistik vositalarning qo'llanilishiga qarab belgilanadi. So'zlovchining har bir nutqiy harakati zahirida ma'lum bir maqsad yotadi. O'zbek tilida muloqot jarayonida axborot, maslahat, nasihat, ishonitirish, ogohlantirish, rag' batlantirish, tanbeh, tahdid, haqorat, qo'rqitish kabi turli kommunikativ maqsadlar nutqiy ifodalar sifatida namoyon bo'ladi. Bu ifodalarga nisbatan tilimizda «nutqiy akt» atamasi qo'llaniladi. Kommunikativ maqsad tushunchasi kommunikativ akt bilan chambarchas bog'liq. Chunki so'zlovchining maqsadi bevosita nutqiy ifodalarda - nutqiy aktlarda o'z ifodasini topadi. Bu kommunikativ maqsadning illokutsiya (fikir-mulohazalarning maqsadli yo'naltirilganligi) bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Shunga ko'ra, Dj.Syorl «illokutiv kuch» tushunchasini nutqiy aktlar nazariyasining bosh yutug'i deb hisoblaydi. Muallif bu atama doirasida tanbeh, tahdid, haqorat, qo'rqitish, tasdiqlash, va'da berish kabi munosabat ma'nolarini - baholash maqomini tushungan. Illokutiv kuch o'zida illokutiv maqsad, samimiylik sharti, intensivlik shartini mujassamlashtiradi va shu asosda nutqiy vaziyatda so'zlovchining maqsadlari ko'p jihatdan uning intensional holati, istaklari, ijobiy munosabati, adovati, jirkanishi, umid uzishi va shu kabilar bilan belgilanadi [45, 170]. Nutqiy aktlarda bu komponentlar turlicha namoyon bo'ladi.

Kommunikativ strategiya. Kommunikativ strategiya har qanday diskursda asosiy komponentlardan biri hisoblanadi. Diskursda obyektning u yoki bu xususiyatigina emas, subyektning kommunikativ maqsadi ham ifodalanadi. Lingvostilistik vositalarning tanlanishi, illokutiv aktning yuzaga chiqishi, ya'ni so'zlovchi nutqiga xos kommunikativ niyatning implitsit yoki eksplitsit ifodalanishi subyektning maqsadli harakatiga bog'liq. Shu asosda subyekt diskurs strategiyasini (suhbat maqsadini qanday amalga oshirish usulini) ham belgilab oladi. Adresatning muayyan psixologik kayfiyatini vujudga keltirish va saqlash, lingvomentallik asosida chegaralash (birinchi navbatda muloqot jarayonida suhbatdoshga nisbatan muayyan pozitsiyani egallash); diskursning har qaysi

ko'rinishida o'zaro tushunishni ta'minlash; adresatning nutq jarayonida o'z javoblarini navbat bilan ifodalashi uchun sharoit yaratish baholash diskursiga xos maqsadli harakatlar hisoblanadi. Diskursda so'zlovchi o'z maqsadiga erishish uchun turli lisoniy vositalar, nutqiy kombinatsiyalarni qo'llaydi. Muloqotda qo'llaniluvchi verbal va noverbal vositalar, turli strategiya va taktikalar, kombinatsiyalar bir umumiy maqsadga - so'zlovchi kommunikativ maqsadining amalga oshishiga xizmat qiladi.

Muloqot vaziyati. Har qanday nutqiy faoliyat muayyan kommunikativ vaziyatda bo'lib o'tadi. Aynan shu so'zlovchini u yoki bu nutqiy aktga undaydi. Kommunikativ jarayonni murakkab ko'rinishdagi «aloqaning tashqi shartlari va muloqotchilarning nutqi ko'rinishi, fikr ifodalashi, diskursning ichki tuzilishi sifatida belgilash mumkin. Kommunikantlarning aloqa vaziyatidagi o'zaro ta'siri bir necha bosqichda sodir bo'ladi: aloqa o'rnatish, mavzuni rivojlanishi va dialogni qo'llash va uni tugatish. Xabar joyi va vaqti, adresant, adresat hamda ularning maqsadlari kommunikativ vaziyat komponentlari hisoblanadi. Adresantning adresatga ma'lumot beruvchi sifatida pragmatik yo'naltirilishi adresat (qabul qiluvchi) ni til vositalarining u yoki bu ko'rinishini tanlash bilan qurollantiradi. Ko'rinadiki, kommunikatsiya doirasida so'zlovchining ma'lum bir nutqiy vaziyatda o'z kommunikativ maqsadiga turli usul va vositalar orqali erishishi murakkab jarayon bo'lib, unda ishtirok etuvchi komponentlar yaxlitligi diskurs strukturasini tashkil etadi.

I bob yuzasidan xulosalar

Birinchi bob orqali biz siz sizga pragmatika yo'nalishi va uning bir qismi bo'lga diskurs haqida umumiy ma'lumotlar berib o'tdik. O'tgan asrning oxiri tilshunoslik taraqqiyotida o'ziga xos yangi bosqich yangi rivojlanish davri bo'ldi. Shu davrda o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan pragmatika yo'nalishi vujudga keldi. Bu soha, shubhasiz "boshlang'ich" davridan o'tdi va o'zining tadqiqot obyektni va tahlil metodlarini aniqlab oldi va hozirgacha izlanishlar davom etmoqda. Ko'pchiligimiz bu fanni tushunish doirasida qiyinchiliklarga uchraymiz, sodda qilib aytganda pragmalingsvistika inson nutqiy faoliyati demakdir. Biz har kuni turli kishilar bilan ko'rishamiz va fikr almashamiz mana shu muloqotimiz, so'zlashuv uslubimizni pragmatika sohasi o'rganadi. Pragmatika keng qamrovli fan sifatida inson nutqiy faoliyati bilan bog'liq bir qator masalalar, xususan, kommunikativ sintaksis, nutq va nutq faoliyati nazariyasi, tipologiyasi, kommunikatsiya va funksional uslublar nazariyasi, sotsiolingsvistika nazariyasi, psixolingsvistika nazariyasi, diskurs nazariyasi, ritorika va stilistika doiralarida ko'p asrlik tarixga ega bir qator muammolarni o'z ichiga qamrab oladi. Tilshunoslikning bugungi kundagi taraqqiyoti mezonlari nuqtai nazaridan qaraladigan bo'lsa, pragmatika inson nutqiy faoliyatiga aloqador sohalarni birlashtirib turuvchi va ular bilan bog'liq masalalardan bahs yurituvchi zamonaviy lingvistikaning mustaqil sohasi ekanligi ma'lum bo'ladi.

Pragmalingsvistika sohalaridan biri bo'lgan **"diskurs"** esa **og'zaki kommunikatsiyaga** nisbatan ishlatilgan. Bu so'zning ma'nosi fransuzcha discours - "nutq", "so'zlash" demakdir. Olimlarimiz diskurs xususida turli fikrlar bildirib o'tishgan, bizningcha esa diskurs bu muloqot, fikr almashuv va so'zlashuv, aniqrog'i adresant hamda adresat o'rtasidagi nutqiy holat hisoblanadi. Diskurs o'zining presuppozitsiya, implikatura, referensiya va inferensiya kabi kategoriyalariga ega. Biz nutqimizning har bir jabhasida diskurs kategoriyalarining deyarli barchasining qo'llanilishiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Xulosa qilib aytganda, diskurs bu til sathining oliy darajadagi birligi bo'lib, gaplar ketma-

ketligining bog'lanishlilik asosida og'zaki va yozma shaklda yuzaga keladigan struktural, semantik va kommunikativ jihatdan yaxlit bir butunligidir. Uning ham bir qancha turlari, strukturasi va strategiyalri mavjud. Diskursni mavjudligi bu so'zlovchi va tinglovchi mavjudligidir. Diskurs matnlarda yoki suhbatda turli holatlarda bo'lishi mumkin, ba'zan his hayajon gaplarni ifodalasa, ba'zan vaqt , makon-joy, tag ma'no kabi ma'nolarni ifodalab keladi. Ba'zi manbaalarda diskurs va matn o'zaro bir narsa sifatida aytilsada, ularning o'rtasida farqlar mavjud.

II.BOB. DISKURS VA MATNNING O'ZARO UYG'UNLIGI

2.1. Matn va uning lingvistik mohiyati

«Matn» atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. O'zbek tilining izohli lug'atida matn so'zining arabchadan o'zlashganligi, eskirgan kitobiy so'z ekanligi va aynan tekst so'zi anglatgan ma'noga tengligiga ishora qilinadi. Ayni lug'atda "*text*" so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi:

- Matn- yozilgan, ko'chirilgan yoki bosilgan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat va shu kabilar yoki ularning bir parchasi matn.
- Maqolaning matni.
- Musiqa asariga, masalan biror kuyga, opera, roman va shu kabilarga asos bo'lgan she'r, so'z.
- Poligrafiyada yirik shriftlardan birining nomi.

Demak, matn deyilganda faqatgina yozma shakl inobatga olinishi kerak. Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat.

Avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, insonlar o'rtasidagi aloqa matnlar vositasida amalga oshar ekan, matnni faqat yozma shakl bilan chegaralash shakllanib ulgurgan mavjud matn nazariyasi qoidalariga zid bo'lishi turgan gap. Axir, kishilar o'rtasidagi har qanday kommunikatsiya faqat va faqat yozma shaklda amalga oshishini tasavvur etib bo'lmaydi. Agar aloqa vositasi faqat matnlarda aks etganda, insonda so'zlashuv, og'zaki nutq shakllanmagan bo'lar edi. Sintaksisning asosiy birligi gap ekanligi hamisha e'tirof etilgan, matn yoki uning birliklari gapdan yirik, oliy sintaktik-kommunikativ birliklar hisoblanishi lozimligi bugungi matn tilshunosligining asosiy qoidalaridan biriga aylanib ulgurdi. Shunday ekan, faqat yozuvda aks etgan gapnigina gap deb, og'zaki nutqdagi gapni gap bo'lolmaydi deyish to'g'ri bo'lmasligini isbotlab o'tirishning hojati yo'q, albatta. Agar faqat yozuvda ifodalangan yaxlit nutqnigina matn deyiladigan bo'lsa, mantiq gapni ham faqat yozuvdagisiginigina tan olish kerakligini taqozo etadi. Ammo buning mumkin emasligi tabiiy. To'g'ri, og'zaki nutqning so'zlangan paytidagina mavjud ekanligini, yozma nutqning esa zamon nuqtai nazaridan chegaralanmaganligini

hech kim inkor etmaydi, ammo bu og'zaki nutqni eslash, xotirada saqlash, umuman, uni yoki uning muayyan parchalarini tiklash ilojisiz degani emas. Yaxlit og'zaki nutq faqat yozma shaklga olingandagina matn yuzaga keladi tarzidagi hukm daryoda oqib turgan suv suv emas, balki bu “modda” faqat shishaga solingandagina suv paydo bo'ladi degandek bir gapdir.

Bugungi kun tilshunosligida matn tilning alohida yirik birligi (supersintaktik butunlik) va matn tilshunosligi deb atalayotgan sohaning asosiy obyekti sifatida talqin qilinadi. Matnni tadqiq etishda uni so‘z birikmasi va gapdan farqlash lozimligi, matnning ham o‘z kategoriyasi va qonuniyatlari borligi aytiladi. Tilshunos M.X.Hakimov bu haqda shunday yozadi: «Matn so'zining lug'aviy ma'nosida birikish, bog'lanish tushunchalarining borligi, shuning uchun matn tarkibi o‘zaro qaysidir bog‘lovchilar yordamida birikishini o‘rganish «Matn tilshunosligi» sohasining asosiy muammolaridan biri bo'lib qoldi»[8, 21]. Mazkur ishda muallif «matn» atamasini «nutq», «kontekst» kabi boshqa lingvistik atamalardan farqlash lozimligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari dunyo tilshunosligida matn muammolari tadqiqiga bag'ishlangan ishlarning ko'pchiligida “diskurs” termini ham bot-bot qo'llanadi.

Bu termin matn lingvistikasi bilan bir qatorda adabiyotshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik, falsafa, mantiq, psixologiya kabi fan sohalarida keng ishlatilib kelinayotgan bo‘lsa-da, matn lingvistikasining o'zida ham yagona, ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan talqini, ma'nosi yo‘q, xilma-xil farqli tushunchalar ifodasi uchun istifoda qilinadi. Dastlab “diskurs” va “matn” terminlari ayni bir tushuncha uchun qo'llangan bo'lsa, keyinroq “matn” yozma kommunikatsiyaga nisbatan, “diskurs” esa og'zaki kommunikatsiyaga nisbatan ishlatilgan. Bu so'zning ma'nosi fransuzcha discours - “nutq”, “so‘zlash” demakdir.

Shunday ekan matn til sintaktik sathining oliy darajadagi birligi bo'lib, gaplar ketma-ketligining bog'lanishlilik asosida og'zaki va yozma shaklda yuzaga keladigan struktural, semantik va kommunikativ jihatdan yaxlit bir butunligidir.

Har qanday butunlik kabi matn ham uni tarkib toptiruvchi unsurlardan, muayyan birliklardan iborat bo'ladi. Tilshunoslikda qanday birliklar matnni shakllantirishi

yoki matnni bo'laklarga ajratganda qanday birliklar aynan matn birligi deb hisoblanishi borasida ancha-muncha munozaralar mavjud. Bundan tashqari, matnlar shakllanishida tinish belgilarining ham ahamiyati katta hisoblanadi. Ular matnlarni o'zaro bog'lashga, ma'noni kuchaytirishga va albatta matnlarni to'g'ri tushunishimizga ko'mak berdi. Matnlar tipologiyasida axborotni uzatish kanali alohida o'rin tutadi. Ana shunga ko'ra matnlarning og'zaki matn va yozma matn tiplarini farqlash lozim. Kommunikatsiya jarayonida berilayotgan axborotning hajmi ham matnlar tipologiyasi uchun yana bir asos bo'ladi. Har qanday matnni unda ifodalangan axborotning hajm belgisiga ko'ra **minimal matn va maksimal matn** tiplariga ajratish mumkin. Badiiy uslubda yozilgan matnda minimal matn deb biror mavzuni yoritishga bag'ishlangan qatralar, xalq donishmandligini ifodalaydigan maqol, matal va aforizmlar, miniatyuralar, hajviy asarlar, nomalar, she'r va she'riy parchalar, umuman, kichik mavzuni qamrab oluvchi bir necha gaplardan iborat butunlik tushuniladi. Matnning ichki tomonini mazmun yaxlitligi, tashqi tomonini esa turli shakldagi bog'lamalar, sintaktik vositalar birlashtirib turadi [27, 11] Masalan: *Talantsiz yozuvchi tovuqqa o'xshaydi. Vong'oqdek tuxum tug'adi-da, qaqog'lab olamni buzadi!* [9,12]. Minimal matn deb atash mumkin bo'lgan ushbu parchani keltirdik. Tarkiblanish jihatidan bu matn ikkita gapdan tuzilgan, Mazmunni birlashtirishga xizmat qiladigan sarlavha berilmagan. Bu vazifa tovuq va u bilan bog'liq so'zlarga yuklatilgan (tovuq-tuxum-qaqog'lamoq). Iste'dodsiz yozuvchi birinchi gapda tovuqqa o'xshatilmoqda. Ikkinchi gap esa bu o'xshatishni torroq izohlash (bundan keyingi yoki sababini ko'rsatish uchun keltirilgan. Ya'ni, iste'dodsiz yozuvchi tovuqqa o'xshatildi, ammo tovuqning qaysi sifat va xususiyatiga? Muallif munosabati ikkinchi gapda tugal ifodasini topgan. Matn butunligini ta'minlashda tovuq-tuxum-qaqog'lamoq so'zlari mazmuniy o'q vazifasini bajarmoqda. Ko'rinib turibdiki, matnning hajmi muhim ahamiyat kasb etmas ekan, matn birgina so'z bilan ham ifodalanishi mumkin, ammo bunda mazmun to'liq yoritilib berilmaydi. masalan "Ona" so'zini oladigan bo'lsak ushbu matn to'liq yoritilmasa ham, bizning ko'z o'ngimizda mehribon, biz uchun

doim qayg'uradigan xokisor onalarimiz ko'z oldimizga keladi. Demak, birgina so'z ham matn vazifasini bajara olar ekan .

Maksimal matn deyilganda keng ko'lamdagi voqealarni yoritish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan butunlik nazarda tutiladi. Badiiy uslubda hikoya, qissa, roman, epopeya kabi yirik hajmli asarlar maksimal matn hisoblanadi. Bunday matn tarkibida epigraf, so'zboshi (muqaddima), so'ng so'z (epilog) kabi yordamchi qismlar ham ishtirok etishi mumkin. Ular asar mazmuni va g'oyasiga, shuningdek, mavzuning tanlanishi va yoritilishiga oid ayrim masalalarga qo'shimcha izoh, sharh bo'lib keladi. Maksimal matn tashqi jihatdan turlicha shakllangan bo'ladi

Matnlar mazmuni va ifoda maqsadiga ko'ra ham farqli tiplarga birlashadi. Bunda berilmoqchi bo'lgan axborotning xarakteri va uni ifodalashdan ko'zlangan maqsad asosiy o'lchov vazifasini bajaradi. Bu nuqtai nazardan matnlarni nutqiy muloqotning asosiy shakllariga uyg'un ravishda hikoya, tasviriy, muhokama matnlariga ajratish tilshunoslikda an'anaga kirgan. Matn tiplarini belgilashda yana bir omil - asos nutqning funksional uslublaridir. Matn funksional uslubiy mohiyatiga ko'ra

- ✓ ilmiy matn (tezis, maqola, ma'ruza, taqrizlar),
- ✓ badiiy matn (nasriy va nazmiy asarlar),
- ✓ rasmiy matn (ma'lumotnoma, qaror, buyruq, tavsifnoma, tavsiyanomalar),
- ✓ ommabop matn (maqola, suhbat, tabrik va xitob nutqi matnlari

kabi tarmoqlarga bo'linadi. Nobadiiy matn deb, asosiy maqsad mohiyatida estetik vazifa yetakchilik qilgan matnni esa badiiy matn deyish ma'qul. Muloqot paytida, gapirayotganda yoki yozayotganda har doim yangidan matn yaratmaymiz. Ehtiyojimizga ko'ra turli matn tiplaridan foydalanamiz. Ba'zan boshimizdan o'tgan yoki o'zimiz guvoh bo'lgan voqealarni kimgadir aytib beramiz. Tinglovchiga notanish bo'lgan biror kishi yoki joyni batafsil tasvirlab berishga harakat qilamiz. Ba'zan fikrimizni turli dalillar yordamida isbotlashga, izohlashga ehtiyoj sezamiz. Yoxud kimgadir pand-nasihat qilamiz. Uni turli hayotiy voqealar vositasida tarbiyalash yoki aytilganlardan xulosa chiqarishini istaymiz. Muloqot maqsadimiz ba'zan qandaydir xabarni tinglovchiga yetkazishga qaratilgan bo'ladi. Ba'zan

nimanidir so'rashga ehtiyoj sezamiz. Shu bilan birga biror ishni qanday bajarish kerakligi haqida tavsiyalar beramiz yoki biror ishni qilmaslik haqida buyruq beramiz. Maqsadimizga erishish uchun turli ko'rsatma, ta'qiq va xitob jumllaridan foydalanamiz. Insonlar o'rtasidagi muloqot maqsadi va mazmuni shular bilangina chegaralanib qolmaydi. Inson hissiyotlarini, tuyg'ularini, hayajonlarini, azob va qayg'ularini ifodalash, shu orqali tinglovchi yoki kitobxonni ta'sirlantirishni istaydi. Ana shunday hollarda ba'zan mubolag'a ba'zan o'xshatish –qiyoslash uchun bir tasviriy vositalardan foydalanamiz. Shu asosda badiiymatn ifoda mazmuniga ko'ra ham tiplarga ajratiladi: hikoya mazmunli matn, tasviriy matn, izoh mazmunli matn, didaktik matn, xabar-darak mazmunli matn, so'roq mazmunli matn, buyruq-istak mazmunli matn, hissiy ifoda mazmunli matn. Unutmaslik kerakki, biror bir badiiy matnda sanab o'tilgan matn rejalarining hammasi yoki ayrimlari ishtirok etgan bo'lishi mumkin. Voxud butun boshli asar yuqorida zikr etilgan matn tiplaridan faqatgina bittasi asosida shakllangan bo'lishi ham mumkin. Matn - ma'lum bir mazmunga ega bo'lgan va kishi ongida voqea hodisani singdirib beruvchi, uning tafakkurini ishlatuvchi va tashkil etuvchi omillar jarayonida hosil bo'luvchi hodisadir. Ular hajmi jihatidan ikki xil, mikro va makro matnlarga bo'linadi.

Matn – lingvistik tahlil obyekti. Bunga matn muammosiga bag'ishlangan tadqiqotlarning soni tinimsiz ravishda o'sib borayotganligi guvohlik beradi. Lekin shunga qaramasdan, ushbu hodisaning tabiatiga oid masalalar borasida bildirilayotgan fikrlarda mushtaraklik sezilmaydi, ushbu hodisaga berilayotgan ta'riflar ham turlicha ekanligini kuzatamiz. Matn chegarasini belgilash masalasi uning ta'rifini berish borasidagi juda muhim talabdir. Nimani matn hisoblash lozim: to'liq bir asarnimi yoki uning har bir bobinimi, dialogik tuzilmanimi yoki uning qismlarinimi? Albatta, matn chegarasini uning turlarini sanash vositasida ko'rsatish mumkin (masalan, roman, risola, hikoya, maqola, xat, dialog va hokazo), lekin har qanday chegaralash amallarini bajarishda yaxlitlik tarkibidagi qismlarning o'zaro bog'liqligi semantik va strukturaviy jihatdan bir xilda ta'minlangan bo'lishi shart. Demak, struktur-semantik bog'liqlik matn

chegasini belgilovchi me'yor sifatida qabul qilinishi mumkin. "Matn o'ziga xos ichki va tashqi strukturaga ega bo'lgan hodisadir. Uning ichki strukturasi ko'p tarkibli va ko'p bosqichli tuzilishga ega bo'lib, u fonetik, leksik, morfologik, sintaktik sathlarning o'zaro munosabatlari asosida shakllanadi" [23, 36]. Til va nutq birliklarini "keskin farqlash" va "Sossyur tomonidan kun tartibiga qo'yilgan til va nutq dixotomiyasi prinsiplariga izchil amal qilish" tarafdori bo'lgan X.Xayrullayev nutqni uch pog'onali tizim ko'rinishida tasavvur qiladi va gap (eng kichik birlik), murakkab sintaktik qurilma, (mikromatn), abzas (makromatn) larni ushbu tizimning birliklari sifatida ajratishni ma'qul ko'radi [25, 3].

Matn tushunchasini material jihatdan tayin etish va ta'riflash hamma zamonlarda olimlarning e'tiborida bo'lib kelganligiga qaramay, hamon bahs-u munozaralarga sabab bo'ladi, ilgari surilgan turli fikrlar goh birovlar tomonidan e'tirof etilsa, goh jiddiy e'tirozlarni tug'dirib keladi. Ayrim tilshunoslar faqat yozma shakldagi yaxlit nutq yoki nutq parchasini matn deb hisoblaydilar. Masalan, L.M. Loseva "matn" tushunchasini aniqlashda barcha matnlar uchun xos bo'lgan belgilardan kelib chiqish lozimligini aytadi va bu belgilarning birinchisi sifatida uning yozma shaklda bo'lishini alohida qayd etadi [39,4]. Matnni lingvistik tadqiqot obyekti sifatida rus tilshunosligida birinchilardan bo'lib batafsil o'rganganlardan biri I.R.Galperin "matnning ontologik va funksional belgilarini namoyon etadigan yetakchi jihatlar" dan biri sifatida "yozma hujjat tarzida reallashadigan tugallanganlik" ni alohida ta'kidlab ko'rsatadi.[31,141] Uningcha, matn yozuvda qayd etilgan nutqiy asardir .

Axborotni o'zlashtirish jarayonida inson turli ko'rinishdagi aqliy harakat amallarini bajaradi va bulardan eng asosiylari umumiyashtirish hamda xususiylashtirishdir. So'zsiz, bu aqliy amallarning har ikkalasi ham matn mazmunini tushunish uchun zamin yaratadi. Umuman, so'z va undan yuqori pog'onadagi birliklarning inson ongida o'rnashib qolgan qomusiy hamda lisoniy ma'no bilan bog'liq tomonlarini inobatga olish tushunish faoliyatining psixolingvistik tahlili va ushbu faoliyat tabiatini bilish uchun muhimdir. Shu sababli bo'lsa kerakki, psixolingvistik tadqiqotlarda umumiy ma'noni ifodalovchi

«tayanch soʻzlar»ni ajratish va ularning nutqiy matn mazmunining shakllanishidagi rolini oʻrganishga alohida ahamiyat qaratib kelinmoqda.

Koʻrinadiki, ushbu kognitiv amalning negizida matn mazmunini tushunish omillarni taʼkidlash maqsadi turadi. Matn mazmunini tashkil etuvchi ushbu omillar matnni toʻgʻri tahlil qilish va uni tushunishda hamda oʻquvchi ongiga matn mazmunini singdirishda, lisoniy birliklarni toʻgʻri ifodalashda muhim vosita boʻlib xizmat qiladi.

2.2. Badiiy matn tadqiqida diskursiv yondashuv

Badiiy asar tili nihoyatda murakkab va oʻziga xos hodisa hisoblanadi. Tilshunoslik, umuman, filologiya tarixida uni oʻrganishga turlicha yondashib kelingan. Badiiy asar tili tadqiqi bilan bir umr shugʻullangan V.Vinogradov oʻzining «Badiiy adabiyot tili haqidagi fan va uning vazifalari» nomli maʼruzasida badiiy adabiyot tili toʻgʻrisida gap ketganda, «til» soʻzi ikki xil maʼnoda qoʻllanishini taʼkidlaydi, yaʼni:

1) u yoki bu milliy tilning sistemasini aks ettiruvchi «nutq» yoki »matn» (adabiy til tarixi, tarixiy grammatika va leksikologiya uchun tahlil material) maʼnosida; 2) «sanʼat tili», badiiy ifoda vositalari sistemasi maʼnosida [24, 122]

Adabiyotning soʻz sanʼati ekanligi, uning birlamchi unsuri til ekanligi haqidagi haqiqatni hech kim hech qachon inkor etgan emas. Kishilik tarixida adabiyot atalmish dunyoni obrazli idrok etish sanʼati yaralibdi-ki, bu sanʼatning asosiy ifoda vositasi boʻlgan soʻz, tilni tadqiq etishdek mashaqqatli yumush inson tasavvuri va tafakkurini muttasil band etib keladi. Buyuk maʼrifatparvar adib Abdurauf Fitrat «Adabiyot qoidalari qoʻllanmasida “Goʻzal sanʼatlarda tovar (materiyol) tovush, ohang boʻlsa, goʻzal sanʼat musiqiy boʻladir; boʻyovlar, chiziqlar boʻlsa, rasm boʻladir; tosh yo boshqa turli maʼdanlar esa, haykalchilik boʻladir; tosh yogʻoch, kirpich, ganj, tuproq boʻlsa, meʼmorliq boʻladir; tan, mugʻa (muqom, mimika) harakatlari esa, oʻyun (tans) boʻladir; gap, soʻz esa, adabiyot boʻladir” deb yozadi va adabiyotga shunday taʼrif beradi: “Adabiyot - fikr, tuygʻularimizdagi

to'liqlarni so'zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to'liqlarni yaratmoqdir [5,12-13].

Atoqli o'zbek adabiyotshunosi O.Sharafiddinov o'zining «Adabiyot tildan boshlanadi» nomli maqolasida shunday yozadi: "Rangsiz tasviriy san'at, ohangsiz musiqa bo'lmaganidek, tilsiz adabiyot ham bo'lmaydi. Adabiyotni insonshunoslik deyilar. Darhaqiqat, yozuvchi xilma-xil insoniy xarakterlarni tadqiq qilib, jamiyat rivojiga yordam beradigan salmoqli haqiqatlarni kashf qiladi. Biroq bularning hammasi adabiyotda til orqali ro'yobqa chiqariladi" [21, 5].

Bu o'rinda yirik adib va adabiyotshunos P.Qodirovning quyidagi fikrlari ham alohida diqqatga sazovor: «haykallar misdan marmardan yasaladi, binolar g'ishtdan, oynadan, po'latdar quriladi. Adabiy asarda misning ham, marmarning ham, po'lat va g'ishtning ham o'rniga badiiy so'z ishlatiladi. Adabiy asarning muzika, rassomlik va boshqa ijod sohalaridan farqi uning ohanglari chiziqlar, bo'yoqlar vositasi bilan emas, so'zlar vositasi bilan yaratilishida ko'rinadi. Demak, badiiy til har qanday adabiy asarning spesifikasini belgilaydigan eng asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Badiiy til nazariyasi esa adabiyot nazariyasiga oid masalalarning birinchi qatorida turadi». O'zbek tilshunosligida ham badiiy asar tilini o'rganishga bag'ishlangan ishlarda, asosan, ikkita yo'nalish yetakchilik qilganligini kuzatish mumkin [4, 173-174]

1. Lingvistik yo'nalish. Tilning muayyan tarixiy davrdagi holati ayni holatga xos bo'lgan xususiyatlar, leksik, fonetik va grammatik o'zgachaliklar, tilning hozirgi holati bilan umumiy va farqli jihatlarini ilmiy tadqiq etish maqsadida o'sha davrga oid adabiy – badiiy asarlarning tili o'rganiladi. Bunda badiiy asarlar, yozma yodgorliklar tili ayni maqsaddagi tadqiqot uchun faqat material bo'lib xizmat qiladi. Til tarixini tasvirlash va tadqiq etishda bu yo'l eng qadimgi va mustahkam lingvistik an'ana sifatida yashab kelmoqda. O'zbek tilshunosligida bu yo'nalishda juda ko'p tadqiqotlar yaratilgan.

2. Lingvopoetik yo'nalish. Badiiy asar tilini lingvopoetik yo'nalishda o'rganishning asosiy maqsadi esa bundan farq qiladi, albatta. Bu o'rinda masala

tilning turli vazifalarga egaligiga borib taqaladi. Tilshunoslikka oid zamonaviy adabiyotlarda tilning, asosan, to'rt-besh vazifasi qayd etiladi.

1. Kommunikativ vazifa – tilning kishilar o'rtasida asosiy aloqa vositasi ekanligi.
2. Ekspressiv vazifa – turli fikr va tuyg'ularni ifodalash vazifasi.
3. Konstruktiv vazifa – fikrlarni shakllantirish, tartibga solish va ifoda tarzini belgilash vazifasi.
4. Akkumulyativ vazifa – ijtimoiy tajriba va bilimlarni to'plash, saqlash vazifasi.

Badiiy asar tili tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda tilning ayni "ekspressiv vazifasi" atamasi bilan bir qatorda «tilning poetik vazifasi», «tilning badiiy vazifasi», «tilning estetik vazifasi» kabi atamalar ham qo'llanadi. Ammo shuni ham aytish kerakki, "tilning estetik vazifasi" atamasi filologik adabiyotlarda nisbatan ko'p ishlatiladi. Bunday bo'lishi ham tabiiy, chunki estetik vazifa tushunchasi ekspressivlik, badiiylik, poetiklik kabi bir qator tushunchalarni ham o'z ichiga olgan holda ularni umumlashtira oladi. Boshqacha qilib aytganda, mazkur tushunchalarga qaraganda estetik vazifa tushunchasining qamrovi ancha keng. Albatta har qanday badiiy asarda tilning boshqa vazifalari ham reallashadi, ammo estetik vazifa birinchi planda turadi, yetakchilik qiladi. Shuning uchun ham lingvistik adabiyotlarda bu holatga mana bu tarzda alohida urg'u beriladi: **"Badiiy matn** har qanday nobadiiy matndan farqli o'laroq alohida vazifani – kommunikativ vazifa bilan murakkab o'zaro aloqadorlikda namoyon bo'luvchi va matnning o'ziga xos qurilishida hal qiluvchi omil hisoblanuvchi estetik vazifani bajaradi". Bu o'rinda shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, tilning bu o'ziga xos estetik vazifasi namoyon bo'ladigan soha faqat badiiy asar matnidir, undan boshqa biron bir nutq ko'rinishida til o'zining bu vazifasini reallashtira olmaydi deb qarash ham asosli emas. Bu ma'noda tilshunos D. N. Shmelevning mana bu fikrlari diqqatga sazovor: «Tilning bu vazifasi (estetik vazifasi) faqat badiiy asardagina namoyon bo'lmaydi. Bizning diqqatimiz jumlaning shakliga, fikr qay tarzda ifodalanganligiga qaratilgan har onda biz aynan shu vazifaning harakati doirasiga kiramiz». Olimning alohida ta'kidlashicha, so'zlovchi o'z nutqining tashqi shakliga e'tibor bera boshlashi, lisoniy ifoda imkoniyatlarini baholashga o'tishi bilan tilning

estetik vazifasi o'zining boshlang'ich ko'rinishida namoyon bo'ladi, ya'ni so'zlovchi nimani ifodalashnigina emas, balki ayni shu «nima»ni qanday ifodalashni ham muhim deb hisoblashidan boshlaboq tilning bu vazifasi ishga tushadi. Tilshunos M.Yo'ldoshev badiiy matn haqidagi fikrlarini shunday izohlaydi: "Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o'zida turli uslub ko'rinishlarini muallif ixtiyoriga ko'ra erkin jamlay oladigan, kishilarga estetik zavq berish xususiyatiga ega bo'lgan g'oyat murakkab butunlik hisoblanadi. Badiiy matnda boshqa uslub matnlarida bo'lganidek, qat'iy mantiq, soddalik, tushunarlilik, normativlik kabi qonuniyatlarga to'la-to'kis amal qilinavermaydi. Unda badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalaniladi. Ta'sirchanlik birinchi planga ko'tariladi. Ohangdor, jozibador so'zlar ko'p qo'llaniladi. Tasvirlanayotgan voqelikda uyg'un bir musiqa, ichki bir garmoniya sezilib turadi" [26, 35].

Tilshunos olim A.Hojiyev matn atamasiga "Yonma-yon harflar, yozuv orqali aks ettirilgan nutq, umuman, nutq parchasi; tekst" deb ta'rif beradi [9, 61]. O'zbekcha badiiy matnlar va ularning lingvopoetik tahlili bo'yicha tadqiqotlar olib borgan M.Yo'ldoshev matnlarni hajm belgisiga ko'ra matn tiplari va ifoda maqsadi, mazmun belgisiga ko'ra matn tiplariga ajratadi. M.Yo'ldoshevning kuzatishlarida ifoda maqsadi va mazmun belgisiga ko'ra matn tiplarining bir qator turlari tahlilga tortilgan va ularning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Badiiy matn masalasi haqida fikr yuritganda tilshunos olim S.Boymirevaning matnning paydo bo'lishi haqidagi quyidagi fikrlari muhim ahamiyatga ega: "Ma'lumki, voqelikda kechayotgan hodisalar, mavjud bo'lgan predmetlarni inson tomonidan idrok etilishi va ular haqidagi axborotni boshqa shaxsga uzatilishi mukammal jarayondir. Bu jarayonning ilk bosqichida perseptiv (qabul qilish) harakatlar bajarilsa, keyingi bosqichlarida esa mantiqiy tahlil harakati boshlanadi va, nihoyat, shu tahlil asosida tug'ilgan tushuncha – konsept lisoniy voqelikka ko'chadi. Ammo barcha turdagi harakatlar, ular ruhiy, mantiqiy yoki boshqa xarakterga ega bo'lishidan qat'iy nazar, ularning ijrochisi bo'lgan insonning shaxsiyati, hissiy tuyg'ulari, bilish zahirasi, istak-xohishi bilan bog'liqdir [3,76]. Fikr ifodalashda doimo qulaylikka

intilish til birliklarini nutqning ma'lum bir ko'rinishlari uchun xoslab qo'yishi nutqning turli ko'rinishlarini hamda ularning yozma ifodasi bo'lgan matn turlarini vujudga keltirgan. Tilimizda matnning ilmiy, rasmiy, publisistik, badiiy matn kabi turlari ham mavjud bo'lib, bular ichida badiiy matn bo'yoqdor va ta'sirchan vositalarga boyligi, xilma-xil janrlari mavjudligi, eng muhimi til bajaradigan muhim ijtimoiy vazifalardan biri – estetik ta'sirchanlikni namoyon qila olishi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari dunyo tilshunosligida matn muammolari tadqiqiga bag'ishlangan ishlarning ko'pchiligida "diskurs" termini ham bot-bot qo'llanadi. Bu termin matn lingvistikasi bilan bir qatorda adabiyotshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik, falsafa, mantiq, psixologiya kabi fan sohalarida keng ishlatilib kelinayotgan bo'lsada, matn lingvistikasining o'zida ham yagona, ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan talqini, ma'nosi yo'q, xilma-xil farqli tushunchalar ifodasi uchun istifoda qilinadi. Dastlab **"diskurs"** va **"matn"** terminlari ayni bir tushuncha uchun qo'llangan bo'lsa, keyinroq **"matn" yozma kommunikatsiyaga nisbatan, "diskurs" esa og'zaki kommunikatsiyaga nisbatan** ishlatilgan. Bu so'zning ma'nosi fransuzcha discours - "nutq", "so'zlash" demakdir. Xulosa qilib aytganda, matn til sintaktik sathining oliy darajadagi birligi bo'lib, gaplar ketma-ketligining bog'lanishlilik asosida og'zaki va yozma shaklda yuzaga keladigan struktural, semantik va kommunikativ jihatdan yaxlit bir butunligidir. Matn maqsad-mohiyatida tilning ikki muhim vazifasidan qaysi birining - kommunikativ vazifaningmi yoki estetik vazifaningmi-yetakchilik qilishiga asoslangan holda matnlarning ikki oppozitiv tiplarini farqlash zarur, ya'ni **badiiy matn** va **nobadiiy matn**. *Asosiy maqsad-mohiyatida kommunikativ vazifa yetakchilik qilgan matnni nobadiiy matn deb, asosiy maqsad mohiyatida estetik vazifa yetakchilik qilgan matnni esa badiiy matn deyish ma'qul.*

Badiiy matnda shaxsning ruhiy-emotsional holatini ifodalash personajning xarakteri turi va individual qirralariga bog'liq bo'ladi. Har bir emotsiya ma'lum bir ifodalanish shakllariga ega bo'ladi. Badiiy matn uchun emotsional taassurot yoki kognitiv obraz mazmunini singdirish yozuvchi uchun atrofdagi shaxslar,

predmetlar, hodisa va voqealarning o‘zlashtirilishi ahamiyati muhim hisoblanadi. Badiiy matnda tasvirlangan jamiki emotsional kechinmalar jamlangan ifodasi emotsional konsept bo‘ladi. Insonning, o‘zining ichki olami, atrofini o‘rab turgan voqelik haqidagi tasavvurlari emotsional konseptosferani tashkil etadi. Emotsional konsept emotsiyalarning individual muallif tomonidan idrok etilishini badiiy asarda personajlar his-tuyg‘ulari orqali aks ettiradi.

Ma‘lum nutq shart-sharoiti, mavzusi so‘zlovchi munosabatiga bog‘liq holda tildagi har bir so‘z his-tuyg‘u ifodalash vositasiga aylanishi mumkin. Turli xil his-tuyg‘u ifodalashning muhim vositasi hisoblangan so‘zlar zavqlanish, quvonch, xursandchilik, koyish, qo‘rqish, afsuslanish, norozilik, e‘tiroz, jirkanish, nafratlanish, g‘azab, xo‘rlik, o‘kinch, alam, pushaymon, g‘am, qayg‘u, musibat, kulfat, dard, g‘am-g‘ussa, mamnunlik, yig‘i, maslahat kabi turli xilma-xil emotsinol ma’nolarni ifodalaydi. Bu ma’nolar matn va ohang bilan bog‘liq ravishda reallashadi:

Qur‘on oyatlari qabriston ichiga og‘ir ohangda oqar edi. Qabr yonig‘a tiz cho‘kkan yigitning ko‘z yoshlari ham qur‘on oyatlariga qo‘shilib oqar edi. Biror soatdan keyin tilovat to‘xtaldi. Otabek holsizlanib oyog‘ uzra turdi va orqasidag‘i yarim yalang‘och ko‘lagani ko‘rib bir necha qadam qabr tomong‘a tislandi...Ko‘laga yaling‘ansumon unga yaqin yurib keldi ...

– *Kim bu?*

– *Men Kumush!..*

Otabek tovush Egasini tanidi. Bu majnuna Zaynab edi.

– *Ket mundan!*

– *Men Kumush! – dedi yana Zaynab, ammo ketmay iloji qolmadi. Zeroki dunyodag‘i eng yaqin kishisi unga “ket!” amrini bergan edi. [3,370]*

Yuqoridagi parchada yozuvchining til shaxsini namoyon qiluvchi gaplar, “Men Kumush” kabi sintaktik vositalarning tanlanishi va ifodalanishi mahorat bilan tasvirlangan. Nutqiy vaziyat va ohangga bog‘liq holda emotsionallik kuchli tarzda ifodalangan. Shu o‘rinda ham sintaktik vositalar o‘z nominativ funksiyasidan

tashqari qo‘shimcha vazifalarni, ya‘ni so‘zlovchining armonlari va orzularini, qayg‘u va hayratlanish holatlarini o‘zida aks ettirgan.

Badiiy matnda personajning o‘z-o‘ziga taskin berishini kuzatish mumkin. Chunki personajning har qanday xatti-harakati, emotsional reaksiyasi badiiy matnning umumiy mazmun-mohiyati uchun muhimdir: “Endi bu tinchligimni hech narsaga almashmayman, xotinimni hech ham o‘ksitmayman, odamlarning ko‘nglini olaman, mana shu tog‘lar hurmati... endi xotinimni ham, meni intizorlik bilan kutib olgan odamlarni ham boshimda ko‘tarib yuraman. Bir umr ularning izzatini qilaman, mening uchun endi urush, qon, o‘lim, degan narsalar tugadi” [6, 20] Ushbu asarda yozuvchi badiiy matnning o‘z-o‘ziga gapirish orqali personajning his-tuyg‘ularini yoritib bergan. undan tashqari taskin, o‘zini o‘zi yupatish ma‘nosi ifodalangan dialogik matn hisoblanadi.

Salbiy emotsionalikka ega bo‘lgan emotsiyaning yana bir ko‘rinishi qarg‘ish, qayg‘uli nolish hisoblanadi.

— *Ana!* — *Kelinoyi tag‘in shang‘illadi.* — *Sizning eringiz o‘tiningizgacha yorib beradi. Maniki bo‘lsa, bir paqir suv olib kelmaydi, qo‘lginang sinib, akashak bo‘lgur. Uyim-joyim deb bo‘ynini egmaydi, bo‘yniginang kesilgur, eshshak! Xudoyo bo‘yniginang hazrati Alining qilichida kesilmasa, u dunyo-bu dunyo rozimasman-a!*[10,48] usbu parchadagi Mo‘min akaning xotinining gaplari esa ham qarg‘ishga ham nolishga misol bo‘la oladi. ushbu parchani o‘qir ekanmiz, bu parcha beixtiyor hammamizni o‘yga toldiradi, chunki shukronalik tuyg‘usining yo‘qligi, xotinning tilining zaharligi yaqqol ko‘rsatib berilgan.

“Farzand ko‘rishdan qo‘rqardilar... Urush bo‘lib qolsa bolalar azoblanadi, deb cho‘chirdilar. Xayollarida ertami indinmi urush boshlanib, hamma yoqni atom bomba bosadigandek edi. Birinchi homilamni olib tashlattirmoqchi bo‘ldilar. Men unamadim. Tug‘ilganida xursand bo‘ldilar baribir. Lekin... xavotirlari ko‘tarilmadi... Bolamizning umri qisqa ekan, atom bombasiz ham bizni tashlab ketdi... Keyin shu masalada baribir chiqisha olmadik. O‘zlari juda yaxshi odamlar, chivinga ham ozor bermaydilar... Lekin xayollari g‘alati...” [8, 129]

Yuqoridagi parchada Samandarning birinchi xotinining qayg'uli nolishli yig'isi ifodalangan. u ayol azob, farzandsizlik azobidan qayg'uli nolish ila ko'rsatayapti. Demak, badiiy matndagi emotivlik xususiyati badiiy asarning ta'sirchanligini hamda mazmunni oshiruvchi asosiy omil hisoblanar ekan. undagi leksik, morfologik va sintaktik birliklar erkalash, yupatish kabi ma'nolarni ifodalagan va mazmun ekspressivligini, emotsionalligini ta'minlashga xizmat qilgan. Bu birliklarning shevaga xos variantda berilishi til shaxsi namoyon bo'lishida muhim komponentlardan hisoblanadi.

Badiiy matnda shaxsning ruhiy holati orqali uning qanday shaxs ekanligi, xarakteri, o'y-kechinmalarini anglash mumkin. Matn yaratilish jarayonida lisoniy shaxs ongi va tafakkurida avvalambor psixologik holat kuzatiladi. Misollar tahlilidan ma'lum bo'layaptiki, badiiy matnda personajlar nutqini kuzatganimizda so'zlovchi shaxsning nutqi orqali uning dunyo qarashi, ko'rinishi, ijtimoiy hayoti, qanday shaxs ekanligi yaqqol gavdalanadi.

2.3 Badiiy matnni diskursiv tahlil qilish tamoyillari

Badiiy matnning lisoniy tahlili fanining metodologiyasi dialektik tafakkur qonuniyatlariga asoslanadi. Metodologiya so'zi yunon tilidan bo'lib, *metodos*—yo'l, usul va *logos*—ta'limot demakdir. Boshqacha qilib aytganda, insonning nazariy va amaliy faoliyatini to'g'ri uyushtirish, tashkil etish haqidagi ta'limotdir. Dialektik tafakkur narsa va hodisalarning mohiyati ularning bir-biri bilan aloqadorligi va rivojlanishi falsafiy qonunlar, tushunchalar (kategoriyalar) tizimi yordamida ochib beradi. Dialektikaning qonun va tushunchalari voqelikdagi narsa va hodisalarning eng umumiy aloqasini aks ettirib, insonda narsalarning mohiyatiga chuqur kirib borish va ongli tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Lekin mazkur qonuniyatlar muayyan badiiy asarga tatbiq qilinganida uning xususiy tomonlarini hisobga olish zarur. Badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida quyidagi tamoyillarga tayanib ish ko'rilsa maqsadga muvofiq bo'ladi degan fikrdamiz:

- 1. Shakl va mazmun birligi tamoyili.**
- 2. Makon va zamon birligi tamoyili.**
- 3. Badiiy matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabat aniqlash tamoyili.**
- 4. Badiiy matndagi poetik aktuallashtirilgan til vositalarini aniqlash tamoyillari.**
- 5. Badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarini aniqlash tamoyili 91.**

Tahlil usullari sifatida esa quyidagilar e'tirof etiladi:

1. Lisoniy tadbil usuli.
2. Matn variantlarini qiyoslash usuli.
3. Lug'atlarga asoslanish usuli.
4. Lisoniy birliklar indeksini tuzish usuli.

1. Shakl va mazmun birligi tamoyili. Borliqdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi aloqadorlik, bog'lanish turlaridan biri shakl va mazmunning dialektikasidir. Shakl va mazmunning dialektik birligi tushunchasi har qanday matn uchun zaruriy xususiyat hisoblanadi. Faylasuflar mazmunga «muayyan narsa va hodisalarni tavsiflovchi ichki elementlar va o'zgarishlarning majmui» deb baho beradilar. Shaklni esa «mazmunni ifodalash usuli, tashkil etuvchisi» sifatida talqin qiladilar. Shaki va mazmun bir-biri bilan shunday bog'lanib ketganki, birida sezilgan nuqson ikkinchisidagi butunlikka putur etkazishi mumkin. Shakl va mazmun muvofiqligi buzilsa, muallifning niyati to'la namoyon bo'lmay qolishi turgan gap.

Bunda asosiy e'tiborni matn va uning janr xususiyati o'rtasidagi muvozanatga qaratgan holda, matndagi lisoniy birliklarning matn tabiatiga mosligi masalasini ham diqqat markazidan qochirmaslik kerak. Badiiy matn ham shaklan, ham mazmunan mutlaqo o'ziga xos bo'lgan murakkab va serqatlam estetik butunlikdir. Unda mazmun qanchalik muhim bo'lsa, shakl ham shunchalik favqulodda ahamiyatlidir. Ba'zan shakl hatto mazmun darajasiga ko'tarilishi, mazmun maqomini olib, haqiqiy mazmunning qimmatiga daxl qilishi ham mumkin. Badiiy inatnda muallifning mazmunni shaklga solishdagi mahorati, bundagi individual xususiyatlar alohida qimmatga ega. Badiiy matnning lingvopoetik tahlilida, eng avvalo, ana shu jihat, ya'ni shakl va mazmun birligi birlamchi tamoyil sifatida

nazarda tutilishi lozim. Shakl va mazmunning ochiq yoki yashirin muvofiqligi muallif badiiy niyatining aniq va to'la namoyon bo'lishi uchun jiddiy zamindir.

2. Makon va zamon birligi tamoyili. Badiiy matnning til xususiyatlari tekshirilayotganida undagi har bir hodisaga makon va zamon birligi tushunchasini hisobga olib yondashish kerak. Har qanday asar makon va zamon bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Tarixiy mavzudagi asar tilida muayyan zamon ruhini tashuvchi voqealarning qaysi makonda, qanday muhitda yuz berayotganini oydinlashtiruvchi leksik-grammatik birliklar ishtirok etadi. Makon va zamon tushunchasi badiiy asargagina xos belgi emas. U har qanday matn ko'rinishiga taalluqlidir. Ushbu tamoyil asosida tahlil olib borilayotganda matn yozilgan davr, matnda ko'tarilgan mavzu va matn birliklarining tabiatiga qarab diaxron va sinxron aspektlardan biri tanlanishi kerak. Buni yirik so'z san'atkori Abdulla Qahhor hikoyasidan olingan quyidagi parcha asosida ko'zdan kechiramiz:

– *Ha, sigiring yo 'qoldimi?*

– *Yo 'q... sigir emas, ho 'kiz, ola ho 'kiz edi.*

– *Yo 'qolmasdan ilgari bormidi? Qanaqa ho 'kiz edi?*

– *Ola ho 'kiz...*

– *Yaxshi ho 'kizmidi yo yomon ho 'kizmidi?*

– *Qo 'sh mahali...*

– *Yaxshi ho 'kiz birov yetaklasa ketaberadimi?*

– *Bisotimda hech narsa yo 'q...*

– *O 'zi qaytib kelmasmikin?... Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo 'yilmagan ekan-da. Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin! [2, 33] .* Bu suhbat qayerda, qaysi davrda, qanday odamlar o'rtasida bo'lib o'tayotganligini keltirilgan ushbu kichik parchadan ham bilsa bo'ladi. Savol ham qisqa, javob ham. Savol berish tarzida kibr, mensimaslik, voqelikka arziyas bir narsaga qarayotgandek beparvo munosabat seziladi. Piching, kesatiq va masxara ohangi aniq aks etgan. Javobdan esa qahramonning soddaligi, faqirligi anglashiladi. Suhbat amin huzurida bo'lib o'tyapti. Shunga muvofiq rasmiy nutq elementlaridan foydalanilgan. Badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari tekshirilayotganda undagi har bir til

hodisasiga **makon va zamon birligi** tushunchasini hisobga olib yondashish kerak. Chunki har qanday asar davr va makon bilan bog'liq holda yuzaga keladi.

3. Badiiy matn tilining umumxalq tili va adabiy til munosabatini aniqlash

tamoyili. Tahlil etilayotgan matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini nazarda tutishning yana bir tamoyilidir. V.V.Vinogradov "Badiiy adabiyot tili haqida" (1959) nomli asarida ta'kidlaganidek, badiiy adabiyot tilining tarixiy harakatini umumxalq tili hamda uning turli tarmoqlanishi tarixidan tamoman ajratilgan holda o'rganish mumkin emas. Badiiy matnning ikki turini farqlash mumkin:

- 1) zamonaviy matn (bugun yaratilgan)
- 2) tarixiy matn (o'tmishdayaratilgan).

Zamonaviy matnning ham o'z navbatida ikki turini kuzatish mumkin, ya'ni:

- a) bugungi kun mavzusidagi zamonaviy matn
- b) tarixiy mavzudagi zamonaviy matn. Masalan, S.Ahmadning "Azroil o'tgan yo'llarda" hikoyasi bugungi kun mavzusidagi zamonaviy matn, M.Alining "Ulug saltanat" mavzudagi zamonaviy matn, Navoiyning "Farhod va Shirin" tarixiy matndir.

4. Badiiy matnda poetik aktuallashtirilgan til vositalarini aniqlash tamoyili.

Badiiy asardagi poetik aktuallashtirilgan til vositalarini aniqlash ham muhim tamoyillardandir. Bunday vositalarning lingvistik va badiiy mohiyatini ochib berish orqali badiiy mazmunning shakllanishi va ifodalanishi mexanizmlarini aniq tasavvur qilishi mumkin.

5. Badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik

xususiyatlarini aniqlash tamoyili. Matn ichida qo'llanilgan o'zga matn ko'rinishlarini (nazira, taqlid, naql, hadis, rivoyat, miflar, afsonalar, didaktemalar, u yoki bu ijodkorning asari yoki parchasi kabi) aniqlash va ularning asar mazmuni bilan qay darajada uyg'unligi badiiy mazmun ifodasidagi o'rni, asosiy matn bilan lisoniy va semantik bog'lanishidagi muhim holatlar haqida fikr yuritish badiiy matn lingvopoetikasini ochishda favqulodda zarurdir. Endi esa Matnning tadbil usullari haqida bir qancha ma'lumotlar berib o'tsak:

1. Lisoniy tabdil usuli. Tabdil – “almashtirish, o’zgartirish, o’rin almashtirish” degan ma’noni bildiradi. Ayrim adabiyotlarda o’zakdosh so’zlarning juft holda qo’llanishiga nisbatan ham ishlatilishi aytiladi³². Asar tilining badiiyligi, ishonarliligi, yozuvchining mualliflik mahoratini aniqlashda ushbu tahlil usuli natijalaridan foydalaniladi. Asarda qo’llanilgan so’z yoki iboralarni, jummalarni qayta tuzib ko’rish, o’xshashi bilan almashtirib ko’rish va shu asosda baho berish nazarda tutiladi. Masalan, Abdulla Qahhorning «Anor» hikoyasidagi mana bu misolga e’tibor bering:

"Vo qudratingdan, indamaydi-ya! – dedi Turobjon keltirgan matoni titkilaab-mana, chaynab ko’r! Ko’rgin, bo’lmasa, innaykiyin degin..."

Ayni o’rinda *narsa* so’zi emas, balki atayin *mato* so’zi qo’llanilgan. *Narsa* so’zi uslubiy jihatdan xolis, *mato* so’zi esa ayni ma’nosi bilan xolis emas, ya’ni unda kamsitish bilan bog’liq ma’no qirrası mavjud, bu ma’no qirrası titkilab fe’l shakli bilan yana ham ta’kidlangan. Anorga boshqorong’i bo’lgan va erining anor olib kelishini intiq kutib o’tirgan xotin nazarida, bu-ku arining uyasi – mumli asal ekan, toza asalning o’zi ham *narsa* emas faqat *mato*. Hikoyaning umumiy intonatsiyasi, voqea rivoji ayni o’rinda *mato* so’zini boshqa sinonimi bilan almashtirishga imkon bermaydi. Mahoratli adib Cho’lpon asarlaridan bunday holatlarni istagancha toppish mumkin. Masalan, o’zbek tilida o’ramoq, burkamoq, chulg’amoq, chirmamoq tarzidagi ma’nodosh so’zlar qatori mavjud bo’lib, burkamoq so’zida o’ramoq so’ziga nisbatan o’rash belgisi anchayin ortiq, ya’ni uning ma’no qurilishida “hech bir ochiq joyini qoldirmay” degan qo’shimcha ifoda semasi mavjud. Shuning uchun ham ushbu parchada Cho’lpon tegishli mazmun ifodasi uchun o’ramoq so’zini emas, balki ayni burkamoq so’zini tanlash orqali tasvirdagi aniqlik va ekspressivlikni oshirishga muvaffaq bo’lgan: *Hali tuzuk-quruq odam qatoriga kirib etmagan bu qizchani katta xotinlarning oriyat paranjisiga burkanganlar, paranjining uzun etaklari katta bir tugundek uning qo’ltig’ini to’lg’azardi*. Shuning uchun ham mazkur o’rindagi birliklarni sinonimi bilan yoki boshqa biror so’z bilan almashtirib bo’lmaydi, almashtirilsa asar badiyatiga putur yetadi.

Matn variantlarini qiyoslash usuli. Bu usul orqali ma'lum asar matni ilk boshqa variantlari bilan qiyoslanadi va lisoniy farqlarning mohiyati adib nuqtai nazari, badiiy-estetik niyati hamda asar g'oyasiga bog'lab yoritiladi. Yozuvchining badiiy asar tili ustida ishlashini o'rganishda, yozuvchi tuzatishlarni ayni bir mazmunni ifodalashga qaratilgan turli vositalarni aniqlashda va umuman yozuvchining tildan foydalanishdagi mahoratini belgilashda bu usul yaxshi samara beradi. Shunday holatlar bo'ladiki, asar matni nashrlar tomonidan yoki adabiyotshunoslar tarafidan atayin o'zgartiriladi. "O'tkan kunlar» romani bir necha o'zgartishlar bilan nashr etib kelingani ko'pchilikka ma'lum.

Lug'atlarga asoslanish usuli. Asar tili, ayniqsa tarixiy mavzudagi asar yoki tarjima asarlarining til xususiyatlari tekshirilayotgan paytda tegishli lug'atlarga murojaat qilish lozim bo'ladi. Masalan, "Shayboniyxon" dostoni tilida qo'llanilgan *gudar, savash, sovut, sodoq, g'ul, tuv, baydoq* kabi o'sha davr ruhiyatiga mos harbiy atamalar ma'nosini bilish asarni puxta o'rganishga yordam beradi. Bu-ku bir necha yuz yil oldingi asar ekan, o'tgan asr boshlarida yozilgan asarlar uchun ham lug'at tuzish oddiy ehtiyojga aylanib bormoqda.

Lisoniy tahlil tiplari

Badiiy matnni tahlil qilishning tamoyil va usullari bo'lganidek, o'ziga xos tiplari ham mavjud. Tahlilning maqsadi, yo'nalishi va qamrovini asar hajmi jihatini hisobga olib ikkiga ajratish mumkin: tematik va kompleks tahlil.

1. Tematik tahlil deganda, biror bir badiiy asarni tilning bir jhati bo'yicha va ma'lum tamoyil, usullar bo'yicha tahlil qilish nazarda tutiladi. Tematik tahlil asosan, til sathlaridan biri bo'yicha amalga oshiriladi. Masalan, Cho'lponning "Kecha va kunduz" nomli romanini leksik-semantik jihatdan tahlil qilamiz, deylik. Asardagi lug'aviy birliklar (ayrim so'zlar, iboralar, maqollar, matallar, aforizmlar) ajratib olinadi. Lug'aviy birliklar asar badiyatiga qay darajada xizmat qilishi, an'anaviy yoki individual ekanligi aniqlanadi. Matn komponentlarini birikish usullari alohida o'rganiladi. Matn tiplari va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

2. Kompleks tahlil. Tilning barcha sohalarga xos birliklar va ularning muayyan

bir asarda qo'llanishini matnning umumiy mazmuni, janri, tarkibiy tuzilishi bilan o'zaro bog'liklikda olib o'rganish kompleks tahlilning asosini tashkil etadi. Bu xildagi tahlil umumfilologik yo'nalish, mazmun va xarakter kasb etadi. Shuning uchun matnni tahlil qilishdan avval adabiyotshunoslik va tilshunoslik bilan aloqador sohalarning tamal qonuniyatlaridan albatta xabardor bo'lishimiz kerak. Kompleks tahlil biror bir ijodkorga bag'ishlangan bo'ladi. Bunday tahlilni bir asarni turli sathlar bo'yicha yoki bir necha asarni bir sath bo'yicha o'tkazish mumkin. Masalan, Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romani lingvopoetikasi (til sathlari bo'yicha), yoki Abdulla Qodiriy asarlari lingvopoetikasi. Bunda adib qalamiga mansub barcha asarlarning lisoniy xususiyatlari tekshiriladi va natijalar umumlashtirib tahlilga tortiladi. Bu oson ish emas. Shuningdek, bir yoki ikki kishining ishi ham emas. Adib asarlarini har taraflama tekshirish, tahlil qilish, shu kungacha qilingan barcha ishlarni bir joyga to'plash, tasniflash indeksli ma'lumotlar bazasini yaratish, zaruriy lug'atlarni tayyorlash va boshqa ishlarni amalga oshirish jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan lingvopoetikaning faoliyat doirasiga kiradi.

II bob yuzasidan xulosalar

Biz ikkinchi bob orqali matn haqida umumiy ma'lumotlar, matnning turlari, badiiy matnning o'ziga xos xususiyatlari va tiplari haqida ma'lumotlar berib o'tdik. Demak «Matn» atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. O'zbek tilining izohli lug'atida matn so'zining arabchadan o'zlashganligi, eskirgan kitobiy so'z ekanligi va aynan tekst so'zi anglatgan ma'noga tengligiga ishora qilinadi. Matn bu ilmiy asar, matn bu hujjat, maqolaning matni, roman barcha va barcha yozma manbaalarga tegishli bo'lgan narsalar matndir. Matnlar hajmiga ko'ra turli xil bo'ladi. Matn kichik hajmda 2 yoki 3 gapdan iborat bo'lishi ham mumkin, bunday matnlar esa minimal matn deyiladi. Ular hajm jihatdan kichik bo'lishiga qaramasdan mazmunan nihoyatda keng bo'lishi mumkin. Bu esa yozuvchining mahoratiga bog'liq hisoblanadi. Shunday yozuvchilar borki, ular 2 og'iz so'z bilan ham keng ma'noni qamrab olishi mumkin bo'gan narsalarni yozadi, shundaylari borki, ulkan hajmli asar yaratsa ham mazmunini anglay olmaymiz. Minimal matn bir so'z bilan ham yoritilishi mumkin ekan, masalan, "Bahor" so'zi aytilganda tasavvurimizga gullagan daraxtlar, go'zal tabiat, yerdagi yumushlar keladi. Demak birgina so'z bilan ham matn yaratish mumkin ekan.

Maksimal matn deyilganda keng ko'lamdagi voqealarni yoritish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan butunlik nazarda tutiladi. Badiiy uslubda hikoya, qissa, roman, epopeya kabi yirik hajmli asarlar maksimal matn hisoblanadi.

Bundan tashqari matnlar badiiy matn yoki nobadiiy matn bo'lishi mumkin. badiiy matnlarning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, unda ekspressivlik, emotivlik, hissiyot yuqori o'rinda turadi. Unda qayg'uni, g'amni, xotirjamlikni, baxt, quvonch qarg'ish kabi holatlar judayan ta'sirchan tarzda yaratiladi. Ba'zi manbaalarda diskurs va matn bir narsa sifatida qaralgan. Aslida esa diskurs bu og'zaki nutqni matn esa yozma nutqni ifodalaydi, ular bir biri bilan chambarchas holda bir birini to'ldirib turadi. Taniqli tilshunos olim Sh. Safarov fikrlariga tayanadigan bo'lsak, biror og'zaki gapni aytmoqchi bo'lsak eng avvalo, uni miyamizda yozma matnini shakllantirib, unda turli xil diskurs marker va

kategoriyalarini qo'llashga harakat qilamiz va keyin uni tinglovchiga bayon qilamiz. Muloqot yoki matn orqali muallif o'quvchiga ta'sir o'tkazishning turli usullaridan (epistemik, denotik, aksiologik) foydalanishi jarayonida, albatta, matn strukturasi «jonlantiruvchi marker»larni tirkeydi, kiritadi. Natijada, ular matn kompozitsiyasini shakllantirishda xizmat qiluvchi muhim vositalardan biriga aylanadi. Mana shu vositalar orqali nutqimiz ta'sirchanligini oshirishimiz mumkin ekan. Har bir matn bayon etilish jarayonida turli xil tamoyillarga, xususan, zamon-makon, lisoniy birliklar, lug'atlarda ishlash kabi yana bir qancha tamoyillarga tayangan holida amalga oshiriladi.

III. BOB. INGLIZ VA O'ZBEK BADIY MATNLARDA DISKURS HOLATI

3.1. O'zbek badiiy matnlarda diskursning lingvopragmatik mohiyati

Zamonaviy tilshunoslikda yangi yo'nalishlar sifatida tan olingan pragmatik tilshunoslik tilshunoslikning bugungi kundagi zamonaviy yo'nalishlaridan hisoblanib, bu ilmiy soha ko'pchilik tilshunos olimlarda alohida qiziqish uyg'otib kelmoqda. Pragmatika sohasining eng muhim kategoriyalaridan hisoblangan diskurs esa bugungi kunda ko'pchilikni qiziqtirgan va ko'plab mulohazalarga sabab bo'lgan mavzudir. E'tirof etilishicha diskurs bu lotincha “**discursus**” - muhokama so'zidan olingan bo'lib, *hissiy, bevosita, intuitiv*, ya'ni muhokamatalab bilimdan farqli o'laroq, *muhokama orqali vosita bilan hosil qilinadigan mantiqiy dalil - isbotli bilim* demakdir. Olimlarimiz diskurs xususida turli fikrlar bildirib o'tishgan, bizningcha esa diskurs bu muloqot, fikr almashuv va so'zlashuv, aniqrog'i adresant hamda adresat o'rtasidagi nutqiy holat hisoblanadi. Diskurs o'zining presuppozitsiya, implikatura, referensiya va inferensiya kabi kategoriyalariga ega . Biz nutqimizning har bir jabhasida diskurs kategoriyalarining deyarli barchasining qo'llanilishiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Yuqorida biz diskurs va matnning umumiy xususiyatlariga sharh berib o'tdik. Diskurs va matn o'zaro bog'liq hisoblanadi. Diskurs kategoriyalarining ishlatilishini biz quyidagi badiiy matnlarda ko'rib chiqamiz.

Nafaqat nutqimizda, balki badiiy adabiyotlarda ham diskursning turli sathlarida qo'llanilganligiga ko'p bor duch kelish mumkin ammo ularning qo'llanilishi ikki tildagi badiiy matnlarda, ya'ni ingliz va o'zbek badiiy matnlarida bir xil vazifalarni bajarish uyg'unligiga e'tibor berishimiz darkor. Yuqorida biz diskursning kategoriyalariga ta'rif berib o'tdik. Endi esa ularning o'zbek badiiy matnlarida aynan Abdulla Qahhorning “Dahshat” va Shukur Xolmirzayevning “Bir ko'rgan tanish” hikoylarida diskurs kategoriyalarining qay qay holatda qo'llanilayotganligiga nazar solsak. Diskurs kategoriyalaridan biri presuppozitsiya so'zi ingliz tilidagi “presuppose” fe'lidan olingan bo'lib, “*oldindan taxmin qilmoq*” degan ma'noni bildiradi. Pragmatikaga Ba'zan bir og'iz gap bilan ham

suhbatdoshimizning nima demoqchi ekanligini oldindan taxmin qilishimiz mumkin, masalan “Nargiza imtihondan yana yiqildi ” gapida biz Nargizaning avval ham imtihon topshirganini va yiqilganini ko’rishimiz mumkin. Endi presuppozitsiyaning badiiy asarlardagi holatini biz quyidagi misollar orqali kuzatishimiz mumkin. Biz tadqiqot ishi tahlili uchun o’zbek va ingliz adabiyotidan 2tadan hikoyalar tanlab oldik va diskursning qo’llanilishini quyidagi hikoyalar orqali solishtirdik.

Abdulla Qahhorning “Dahshat” nomli hikoyasida 5 ta presuppozitsiya qo’llanilgan bo’lib ularning ba’zilari “yana” so’zi yordamida bog’langan.

Nodirmohbegim yana kaltaklanishidan hayiqmay, Ganjiravonga bir xizmatkorini yubordi- Nodirmohbegim bundan oldin ham kaltaklangan va ularning xizmatkori bor

1. *Nodirmohbegim tovush chiqarmay yana ham qattiqroq yig’lab, uning boshini siladi, yuzini yuziga qo’ydi; so’ng, o’sha chog’i odam yuborib go’ristondan oldirgan ikki chimdim tuproqni yarim piyola suvga chayib Unsinga tutdi.-* Ancha oldin yig’lashni boshlagan va endi undan ham qattiqroq yig’lashni boshladi

2. *Dunyoda Dodxoday berahm odam yana bor ekanmi!- Dodxo judayam berahm odam*

3. *O’ng qo’lida choynak va chap qo’lida qumg’on, o’tning shu’lasidan ko’zi hanuz qamashib borar ekan, bir joyda yer o’pirilib, chap oyog’i taqimigacha botib ketdi va oyog’ining uchi yumshoq bir narsaga tekkanday bo’ldi- demak uning oyog’i qabrga kirib ketdi va u yerda murda bor*

4. *Go’ristonda qo’rqqanga go’ristonning tuprog’i davo bo’ladi- demak u go’ristonga borgan va qo’rqqan kabi presuppozitsiyalar qo’llanilgan.*

5. *Olimbek dodxoning sakkiz xotini katta kundosh Nodirmohbegimning uyiga yig’ilib, sandal atrofida o’tirishar edi- demak Olimbek dodxoning sakkizta xotini bor.*

6. *Unsin qo’rquvdan telba bir ahvolda bo’lsa ham fahmladi: maymun!*

Dodxoning maymuni!- bu ekzistiv presuppozitsiya ya'ni dodxoning maymuni mavjud.

Presuppozitsiyaning qo'llanilishiga o'zbek badiiy adabiyotidan ko'plab misollar keltirish mumkin. Sh.Xolmirzayevning Shukur Xolmirzayevning "Bir ko'rgan tanish" nomli hikoyasida esa quyidagi presuppozitsiyalar qo'llanilgan:

1. *Maktabda yaxshi o'qirdim. Sinfdoshlarim meni hurmat qilishar, muallimlarim: «Salom,Toshboyjon», deb so'rashishar, qo'shnilarimiz: «Yaxshi odam bo'ladi», deyishardi-* Toshboy mavjud va u maktab o'quvchisi;

2. *Kunlardan bir kun, erta bozor oqshomi toqqa, tog'amning ovuliga somonga ketdim-* demak tog'asining ovuli bor;

3. *So'ng allanechuk alahsib, xaltani avaylab titkiladilar-da bir shisha chiqardilar: qornida «Vodka» deb yozilgandi. Araq! Sal kamaygan. Tiqini ham ochilgan-* demak u avval ochilgan va ozgina ichilgan degan presuppozitsiya ongimizda shakllanadi. Yuqorida biz ikkita o'zbek badiiy adabiyoti namunalarida presuppozitsilarning ishlatilish holatlariga guvoh bo'ldik. Demak, presuppozitsiya keng qamrovli diskurs kategoriyasi hisoblanadi.

Diskurning kategoriyalardan yana biri Implikaturadir. Ba'zan so'zlovchilar fikrlarini ochiq bayon qilishga qiynalishadi va yashirin ma'noni qo'llashga to'g'ri keladi, bu hodisa tilshunoslikda Implikatura hodisasi deb nomlanadi. Bunda so'zlovchiga xushmuomalalik bilan, ko'ngilni og'ritmagan holda yashirin tag ma'noni yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan,

- *Are you going to the party?* – *sen bugun tadbirga borasanmi?*

- *I have to work* - *Men ishlashim kerak*

quyidagi keltirilgan misolda, so'lovchiga "Yo'q bormayman" deb ochiqdan ochiq aytish o'rniga, muloyimlik bilan "men ishlashim kerak" deb javob berdi. endi implikaturaning ishlatilish holatlarini yana quyidagi hikoyalarda ko'rib chiqsak. A.Qahhorning "Dahshat" hikoyasida bir o'rindagina implikatura qo'llanilgan:

1. *"Unsin hushdan ketgan ekan, bir vaqq ko'zini ochib qarasa, sandalning chetida chalqancha yotibdi, tepasida Nodirmohbegim yig'lab o'tiripti. Uning o'ng ko'zi momataloq bo'lib shishib ketgan, oq doka ro'molining u yer-bu yeriga qon tekkan*

ekan. Unsin Nodirmohbegimga ko'zi tushgan zamoni undan Dodxoning lafzi lafzmi ekanini so'ramoqchi bo'lgan edi, uning ahvolini ko'rib, eshitilar-eshitilmas:

— Sizga nima bo'ldi?— dedi.

Nodirmohbegim tovush chiqarmay yana ham qattiqroq yig'lab, uning boshini siladi, yuzini yuziga qo'ydi; so'ng, o'sha chog'i odam yuborib go'ristondan oldirgan ikki chimdim tuproqni yarim piyola suvga chayib Unsinga tutdi.

— Ich, jigarim, qo'rqqansan...-ko'rinib turibdiki Nodirmohbegim Unsin bo'lgan voqealar haqida aytish shartmasligini anglagan olda indamadi, Unsin esa hammasini tushundi. Ba'zan implikaturaning to'liq shaklda qo'llanilmaganiga ham huvoh bo'lishimiz mumkin ekan.

“ Bir ko'rgan tanish ” hikoyasida esa implikaturalar quyidagicha ifodalangan:

- Belbog'ini yechib o'rtaqa yoydi. Eshakdagi xurjundan bitta yog'liq patir bilan beshta qo'y qurtini olib belboqqa qo'ydi:.

— Dasturxonga qarang.

— Rahmat, hozir ovqatlandim - parchasida “Yo'q yemayman” deb qo'pollik bilan aytish o'rniga “hozir ovqatlandim” deb rad etish ko'proq muloyimlikni ifodalaydi.

- Darsga kech qolaman, bu o'lgir ot ham imillab yuradi. Tog'a, jon tog'a, miltig'ingizni bering, obkelaman o'sha kuni.

—Jiyanjon... bilasan-ku, irimim bor.

Otamning yiroq bir oshnasidan miltig'ini olib keldim. ushbu parchada “Jiyan bermayman” deb aytish o'rniga “irimim bor” deya implikaturadan foydalangan holda mulozamat ila vaziyatni tushutirmoqda.

Implikatura badiiy adabiyotda ta'sirchanlikni, bo'yoqdorlikni oshirishga xizmat qiladi. Implikatura hodisasi sababli, ba'zan to'g'ridan to'g'ri ayta olmagan gaplarimizni qisqa va muloyimlik bilan tushuntirishimiz mumkin ekan.

Yana bir hayotiy misol, masalan biz zarur ish yuzasidan boshliqning xonasi oldiga borib kirishga izn so'raganimizda, kotiba yonlarida odam bor desa biz tushunamizki, demak boshliq band va hozir biz bilan suhbatlasha olmaydi. Bu kabi misollarni nafaqat badiiy adabiyotda o'zimizning kundalik hayotimiz mobaynida ko'plab qo'llab kalamiz.

Diskursning yana bir kategoriyasi hisoblangan deyksis ko'rsatish olmoshlari, egalik olmoshlari, ma'lum joy, vaqt ravishlari va ba'zi fe'llarni o'z ichiga oladi. "Til tizimidagi qator hodisalarni faqatgina ularning yuzma-yuz muloqot sharoitida shakllanishi inobatga olingandagina tavsiflash mumkin. Bu ayniqsa, deyksis hodisasi talqinida yaqqol ko'zga tashlanadi" [13, 637-638]. deyksis hodisasi sodir bo'layotgan voqea hodisaning makon zamon birligin, kim tomonidan sodir etilayotganini va qachon qayerda bo'layotganini ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Demak, nutqiy faoliyatda doimo lisoniy shaklni voqelik bilan bog'lash hamda unga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish ehtiyoji tug'iladi. Xuddi shu vazifalar ijrosi deyktik vositalar zimmasidadir. «Deyksis» so'zining asl yunoncha ma'nosi «ko'rsatish», «ishora» bo'lib, ilmiy qo'llanishda lison vositasida «voqelikka ishora, ko'rsatish» mazmunini olgan. Ko'rsatish, ishora vazifasini ado etuvchi birliklarni deyktik ibora deb atashadi.. A.Qahhorning "Dahshat" hikoyasida 7 ta social deyksisi "hamma" olmoshi orqali ifodalangan va bu voqea sodir bo'layotgan joydagi barcha odamlarni nazarda tutgan. Ular quyidagilar:

1. *Hamma to'zidi- ya'ni shu yerdagi odamlarning barchasi*
2. *Hamma o'tirgan yerida go'yo bir qarich cho'kkanday bo'ldi va tin olmay bir-biriga qaradi.*
3. *Hammaning eti jivillashib ketdi. Uzoq jimliqdan keyin Unsin yonida o'tirgan kundoshiga shivirlab:*
— *O'lsin, nokas odam ekan, bitta qo'yni deb... Koshki arziydigan narsa bo'lsa!- dedi*
4. *Unsin indamadi. Dodxoning savoli javobsiz qolishi mumkin emas edi.*
Shuning uchun bittasi gunoh qilsa, hammasi baravar kaltak yeydigan kundoshlar Unsinni turtkilashdi;
5. *Gapni aytgan Unsinu, boshqalar o'tirgan joyida yerga qapishib ketdi.*
Biroq dodxo,hammaning kutganiga qarshi, qo'liga qamchi olib Unsinni "qayering qichidi"ga solmadi, aksincha, zaharxanda bilan bo'lsa ham, muloyim gapirdi;
6. *hamma narsani oliptiyu, eng zaruri — o'tin esidan chiqipti!;*

7. *nazarida hamma o'liklar sag'analardan, go'rlardan boshini chiqarib, ketidan qarab turganday edi.*

“” Bir ko'rgan tanish” hikoyasida esa “hamma” deysizi 2 o'rinda qo'llanilgan bo'lib, ular quyidagilar:

1. - *Uning hammasi kaklikmi-Ha.*- shu yerda ko'rsatilayotgan, ayni gapirib turgan yerdagi qushlar nazarda tutilayapti;

2. *O'tloqqa yugurdim: ot yo'q! Bu qorong'ida filni ham topib bo'lmaydi.*

Buning ustiga, hammayoq tog', archazor, jardara... Uyga borsam, otam terimga somon tiqadi- butun atrof ma'nosida hammayoq so'zi qo'llanilgan.

Bertrand Russell «men», «bu», «shu erda», «hozir» so'zlarini asosiy egotsentrik so'zlar sifatida ta'riflab, ularning ma'nosi zamon va makon o'zgarishi bilan bog'liq holda o'zgarib turishini e'tirof qilgan: «Hozir» so'zi har bir qo'llanishda vaqt kechishi davomiyligining ma'lum bir darajasini anglatadi; «shu erda» so'zi, «men»ning har bir harakati natijasida joy oladigan alohida o'rnini belgilaydi; «men» uni talaffuz qilaётgan har qanday shaxsni bildiradi» [19,113.]. Endi ikkala hikoyadagi vaqt deysizlarining ishlatilishiga nazar salsak. “Dahshat” hikoyasida 5ta vaqt (temporal) deysisi foydalanilgan bo'lib “hozir” so'zi orqali ifodalanib, ayni gapirib turgan ayni vaqtida bajarilayotgan harakatlarni ifodalaydi.

1. *"Hozir go'riston qanaqa vahimali bo'lsa ekan...";*

2. *"Hozir kim go'ristonga borib, Asqarponsotning go'riga pichoq sanchib keladi?";*

3. *men hozir seni bir taloq qo'ydim, qaytib kelganingdan keyin uch taloqsan! Bor, qumg'onni ko'tar!;*

4. *"O'likning joni yo'q!"- deb, hozir diliga bitta odamchalik quvvat bo'layotgan bu gapni og'zidan qo'ymay, sag'ana va go'rlarni oralab o'tin qidirdi;*

5. *Unsin bir necha qadam bosganidan keyin paranji chimmati sag'ananing oldida qolganini eslab to'xtadi, lekin qaytib borgani botinolmadi, hozir qaytish emas, qayrilib qaragani ham yuragi dov bermas, nazarida hamma o'liklar sag'analardan, go'rlardan boshini chiqarib, ketidan qarab turganday edi;*

6. *Unsin yelkasiga maymun mingan daqiqada naqadar qo'rqan bo'lsa, hozir shu qadar tinchidi, xotirjam bo'ldi;*

Bundan tashqari vaqt deysizi esa “hozir” so'zi orqali “Bir ko'rgan tanish” hikoyasida 5 marta qo'llanilganva ularning ma'nolari quyidagicha:

- *Hozir ko'rsa hech kim u kishini direktor deb o'ylamasdi-* ayni gapirilayotgan paytdagi direktorning holat nazarda tutilayapti;
- *Suv sutga o'xshab ko'rindi. — Hozir qaynaydi-* choyni qaynashiga oz qoldi ma'nosida qo'llanilgan;
- *Araq! Sal kamaygan. Tiqini ham ochilgan. Demak, oz-moz ichilgan.* «Hozir yana ichadilar- ayni paytda yana ichishi mumkinligini nazarda tutib gapiralayotgan paytni ifodalayapti;
- *Shunday nomard keldimi, g'ippa ushlab hukumatga top-shiramiz. Mana, hozir ovlasin, qishda ovlasin, haloli bo'lsin. Kaklik ham bor, tovushqon ham-* ayni shu kunlarda, boshqa vaqt emas ma'nosida;
- *Hozir maza qilasiz. Inim, siz bu tovushqonning terisini shilib turing. Ketdik, aka, to'xtang, bittadan miltiq bo'shataylik... ana uchishdi, qo'zg'ab yubordik-* ana endi mazza qilasiz ma'nosida;

Quyidagi parchalar orqali birgina hozir vaqt deysizining 5xil joyda 5 xil mazmunda qo'llanilganiga guvoh bo'ldik. Demak Rassel fikriga tayangan holda shunday xulosaga kelsak bo'lar ekan, ya'ni deysizlar bir so'z bilan ifodalansa ham mazmunan turli ma'nolarda qo'llanilar olar ekan.

“Dahshat” hikoyasida shaxs deysislari esa 7 bora biz 4 bora “Men”, 3 bora esa Sen kishilik olmoshlari orqali shaxs deysislari ochib berilgan. Yana bir deysis turlaridan biri makon joy (Spatial) deysizi esa 5 marta bu yerda, bu yoqda kabi so'zlar bilan ifodalangan. Bu ko'rsatish olmoshining o'zi esa 11 marta qo'llanilgan. Endi shu holat bo'yicha Sh. Xolmirzayevning “Bir ko'rgan tanish” hikoyasidagi deysizning ishlatilishiga nazar tashlasak.

Ushbu hikoyada kishilik deysizi 20 marta men so'zini, 3 marta sen, 4 marta biz so'zlarini qo'llash orqali umumiy hisobda 30 martaga yaqin qo'llanilgan.

Ko'rinib turibdiki, deysis badiiy adabiyotda paytni, shaxsni, ta'kidlashni ifodalash uchun ishlatiladi.

Turli mantiqiy-semantik amallar asosida mazmuniy xulosalarga erishishning yana bir yo'li so'zlovchi «nimani nazarda tutayotganligini» extimol qilish va anglashdir. Bunday usul inferensiya tahlili (conversational inference) deb ataladi. Masalan, "Yomg'ir yog'yapti" gapini eshitib, so'zlovchi "Soyaboningni ol, issiq kiyimlaringni kiy" mazmunidagi maslaxatini bermoqchi degan xulosaga kelish mumkin. Ammo bu xulosa bor-yo'gi ehtimol, balki so'zlovchi "Ko'chaga chiqma" demokchidir. Bunday holatlarga ko'plab misollar keltirish mumkin. Diskurs ma'no jihatdan ham keng tushuncha hisoblanadi. Biz his-hayajonda, kirish so'zlarda ishlatadigan so'zlardir.

Yuqorida biz o'zbek badiiy adabiyotidagi ikki hikoyada Abdullo Qahhorning "Dahshat" hamda Shukuk Xolmirzayevning "Bir ko'rgan tanish" nomli hikoyalar orqali diskursning qo'llanilish salmog'ini va holatlarini ko'rib chiqdik. Umumiy xulosalarni esa quyidagi jadval orqali berishga qaror qildik:

Diskurs turi	Abdullo Qahhor "Dahshat"	Shukuk Xolmirzayev "Bir ko'rgan tanish"
Presuppozitsiya	6 ta presuppozitsiya qo'llanilgan	3 ta presuppozitsiya qo'llanilgan
Implikatura	1 o'ringa imlikatura hodisasi ishlatilgan	2 o'ringa imlikatura hodisasi ishlatilgan
Deyksis	Deyksis	Deyksis
Makon zamon deysizi	5 marta bu yerda, bu yoqda kabi so'zlar bilan ifodalangan, 11 marta esa bu olmoshi ishlatilgan(qabriston)	3 o'rinda joy nomlari ovul, tog', dala kabi so'zlarda ifodalangan.
Shaxs deysizi	14 marta turli shaxs deysizlari orqali	30 marta turli shaxs deysizlari orqali

Vaqt deysizi	5ta vaqt (temporal) deysisi foydalanilgan bo'lib "hozir" so'zi orqali ifodalan	5ta vaqt (temporal) deysisi foydalanilgan bo'lib "hozir" so'zi orqali ifodalangan
Social deysizi	7 o'rinda hamma so'zi bilan fodalanilgan	2 o'rinda hamma so'zi bilan fodalanilgan

Quyida biz o'zbek badiiy matnlaridagi diskursning holatlarini ko'rib chiqdik. Ularda diskurs kategoriyalarining qo'llanilishi, ahamiyati va pragmatik xususiyatlarining o'rganishga harakat qildik.

3.2 Ingliz badiiy matnlarida diskursning lingvosemantik tadqiqi

Yuqorida biz o'zbek badiiy matnlarida diskursning ishlatilish holatlarini ikki adibimiz Abdulla Qahhor va Shukur Xolmirzayevlarning hikoyalari sasosida o'zbek badiiy matnlaridagi diskursning foydalanilish holatlatini kuzatdik. Endi esa mana shu holatning aynan ingliz badiiy matnlarida qay darajada ishlatilishini O. Genryning "The Gift of Magi" and Agatta Kristining "The case of perfect maid" nomli hikoyalari orqali tadqiq etamiz.

Eng avvalo, matn turiga ahamiyat beradigan ham bo'lsak, ikkala hikoya maksimal matn turi hisoblanadi, chunki ikki hikoyada ham yozuvchi ma'lum bir kishilar va voqealarni yoritishga harakat qilgan. Dastlab, "The case of perfect maid" va "The Gift of Magi" hikoyalarida presuppozitsiyaning qay holatda va necha marta qo'llanilganligiga to'xtalib o'tsak. Dastlab, "The Gift of Magi" dagi presuppozitsilarni sanab ularga izoh bersak:

1. *Three times Della counted it. One dollar and eighty-seven cents- Bella*

3marta pulni sanadi, bir dollar-u sakson yetti sent, demak Della pulni shuncha ekanligiga ishonmadi ko'proq chiqishini istashi va aynan bir dollar-u sakson yetti sentning mavjudligi bu ushbu parchaning presuppozitsiyasidir.

2. *So now Della's beautiful hair fell about her rippling and shining like a cascade of brown waters. It reached below her knee and made itself almost a garment for her. And then she did it up again nervously and quickly. Once she faltered for a minute and stood still while a tear or two splashed on the worn red carpet-* Dellaning sochlari yoyilib, oftobda sharsharadagi suv kabi nur taratib yaltirar edi. ning sochlari tizzasiga tushib turar, deyarli unga kiyim kabi turardi. Shundan so'ng u tez va asabiy sochlarini yana yig'di Della birinchi judayam ikkilanib turdi, ayni shu daqiqalarda qizil gilam uning ko'z yoshlari bilan belangan edi- ushbu parchani o'qigan har qanday inson Dellaning sochlarini naqadar go'zalligini va u shuni yuqotishni istamayotganligini taxmin qilishi mumkin. Dellaning sochining go'zalligi va u bu sochga achinayotganligi bu parchaning presuppozitsiyasidir.

3. *On went her old brown jacket; on went her old brown hat. With a whirl of skirts and with the brilliant sparkle still in her eyes, she fluttered out the door and down the stairs to the street-* Della jigarrang jaketini, eski jiggarrang shlyapasini kiydi. Ko'zlarida olmoshdek tovlanib turgan yoshlari bilan eshikni yopib sekin uyni tark etdi- Dellaning jigarrang jaketi va shlyapasining mavjudligi ekzistiv presuppozitsiyaga misol bo'la oladi. Bundan tashqari olmos kabi yaltirab yurgan yoshlar esa uning hali ham yig'lab turganini bildiradi.

4. *My hair cut off and sold it because I couldn't have lived through Christmas without giving you a present-* men sochlarimni kesdim, chunki ortiq christmasni senga sovg'a bermasdan o'tkaza olmayman- shu yillar mobaynida umuman sovg'a bermagan.

Endi esa presuppozitsiyaning qo'llanilish holatlarini "The case of perfect maid" hikoyasida qanday qo'llanilganligini tahlil qilamiz.

1. *"Lavinia is very good to me. Lavvie dear, I do so hate giving trouble but if my hot water bottle could only be filled in the way I like it — too full it weighs on me so — on the other hand, if it is not sufficiently filled, it gets cold immediately!"-* Laviniyaning menga munosabati juda yaxshi. Lavvie, azizim, shuning uchun unga muammo tug'dirishni yoqtirmayman, ekin mening issiq suv shisham faqat men

yoqtiradigan tarzda to'ldirilishini istayman - juda to'lgan bo'lsa, menga muammo tug'diradi, - ammo, agar u etarlicha to'ldirilmagan bo'lsa, u sovib qoladi- demak ushbu parchadan biz so'zlovchining noliyotganligini, ya'ni uning shishasi to'lib ketganligini presuppozitsiya hodisasi deb atashimiz mumkin.

2. *It was the view of St. Mary Mead that if Miss Emily suffered half as much as she said she did, she would have sent for Doctor Haydock long ago-* avliyo Mary Madning fikricha, Miss Emilining o'zi aytganidek, yarmi azob chekayotgan bo'lsa, u ancha oldin doktor Haydockni chaqirgan bo'lardi- demak bundan taxmin qilish mumkinki, Emily doktorni chaqirmagan va uning hech qayeri azoblanmagan.

3. *And not Mary alone was missing! Two brooches and five rings of Miss Lavinia's; three rings, a pendant, a bracelet and four brooches of Miss Emily's were missing also!*- U tun davomida jim bo'lib qoldi. Maryamning o'zi ham yo'q edi! Miss Laviniyaning ikkita to'g'nog'ichi va beshta ziragi; uchta halqa, marjon bilaguzuk va Miss Emilyning to'rtta to'g'nog'ichi ham yo'qolgan edi! - presuppozitsiya Miss Laviniyaning ikkita to'g'nog'ichi va beshta ziragi; uchta halqasi, marjon bilaguzugi va Miss Emilyning to'rtta to'g'nog'ichi bo'lgan va ular mavjud. Bu ekzistiv presuppozitsiyadir. Bundan tashqari ushbu hikoyalarda imlikaturaning ham namoyon bo'lishini quyidagi misollar orqali ko'rishimiz mumkin. ““The case of perfect maid” hikoyasidagi implikaturalarni tadqiq etish mobaynida quyidagi implikaturaning namoyon bo'lishining guvohi bo'ldik:

1. *And not Mary alone was missing!*- Maryning yolg'iz o'zi g'oyib bo'magan edi- bunda marydan tashqari yana nimalardir ham yo'qolganligi bu gapning implikaturasidir, ya'ni gapda aniq berilmagan. –

2. *She really hoped her health would improve under it-* U chin dildan shu muolaja orqali unung sog'lig'i yaxshilanadi deb umid qilmoqda- demak uning hayoti xavf ostida va umid yo'q.

Muloqot implikaturasi ham o'z ichiga tilshunoslik strukturasini olgan zamon, artikl kabi implikaturalarni ham oladi.

3. *I hear there was some trouble about a brooch- men bu yerda qanaqadir to'nog'ich bilan bog'liq muammoni eshitdim-* ushbu gapda to'nog'ich bilan qo'llanilib hech kimga ma'lum bo'lmagan qanaqadir to'nog'ichni nazarda tutyapti.

O. Henryning "The Gift of Magi" hikoyasidagi iimplikaturalar esa quyidagilar:

1. *"Twenty dollars," said Madame, lifting the mass with a practised hand.*

- "Give it to me quick," said Della- yigirma dollar bo'ladi dedi masssani ustasi bo'lib ketgan qo'llariga olgan xonim.

- Tezda bering menga shuni- dedi Della- ushbu parchadagi implikatura sochning narxi yigirma dollardan oshmasligi va Dellaga shu pulning o'zi yetarli ekanligini biz uning bir og'iz ham tortishmaganidan ham bilsak bo'ladi.

2. *"You've cut off your hair?" asked Jim, laboriously, as if he had not arrived at that patent fact yet even after the hardest mental labor.*

- My hair grows awfully fast. Say 'Merry Christmas!' Jim, and let's be happy- Sen sochlaringni kesding? so'radi Jek, u og'ir mehnatdan charchab kelgani ko'rinib turardi, hozirgi ahvoli esa undanda og'ir edi.

-Mening sochlarim judayam tez o'sadi, Bayram bilan deb ayt Jim, xursand bo'l- Ha kesdim deb u bilan qo'pol muomalada bo'lish o'rniga bu yerda Della Jimni xafa qilmaslik uchun unga sochlari juda tez o'sishini aytib uni tinchlantirishi implikaturaga misol bo'la oladi.

Biz yuqorida ikkala hikoyadagi impilkaturalarning qo'llanilishi holatlatini tahlil qildik. Endi esa "The Gift of the Magi" va "The case of perfect maid" hikoyalarida deyksisning ishlatilishi va necha marotaba qo'llanilganligiga e'tibor qaratsak. Yuqorida zikr etilganidek, deyksis atamasi grek tiliga mansub bo'lib "ko'rsatish" ma'nosini anglatadi. Bu tushuncha nutqiy muloqot jarayonida nazarda tutilgan narsa (predmet) va hodisalarning nutq faoliyati ishtirokchilari – so'zlovchi va tinglovchiga nisbatan zamon va makondagi o'rnini ifodalovchi vosita bo'lib, ular ingliz tilida asosan, artikllar, 'I – men, you – sen(siz)' kabi kishilik va 'this - bu, that – anavi" kabi ko'rsatish olmoshlari, makonni ifodalovchi "here - shu erda, there - anavi erda" kabi ravishlar, shuningdek so'zlovchiga nisbatan harakat yo'nalishini ifodalovchi "to go - bormoq, to come - kelmoq" kabi harakat fe'llari

orqali ifodalanadi. Bu birliklarni tilshunoslikda “deyksis” yoki “deyktik xarakterdagi soʻzlar” sifatida tan olingan boʻlib, ular soʻzlovchi va tinglovchi oʻrtasidagi muloqot (suhbat)ning yuqorida zikr etilgan maʼnolari nuqtai nazaridan muallifga oʻz fikrini soʻzlovchi shaxs, nutq soʻzlanayotgan makon va zamon tushunchalariga mos tarzda bayon qilishiga yordam beradi. Ingliz tilshunosligining etakchi sardorlaridan boʻlmish professor A.I. Smirnitskiyning taʼbiri bilan aytganda “Artikl otning leksik maʼnosi bilan mantiqan bogʻliq boʻlgan struktural xarakteristikasini hamda uning aniqlik / noaniqlik kategoriyasini ham aniq izohlab beradi” [46, 440]. Bizningcha ham artikl vositasida matnlarda aytilayotgan yoki koʻrsatilayotgan narsalarning aniq yoki noaniqligini tanish yoki tanish emasligini biz artikl vositasi yordamida aniqlashimiz mumkin. “The Gift of the Magi” hikoyasida artikl orqali ifodalangan deyktik soʻzlarni tahlil qilsak: ushbu hikoyada 25 marta the aniq artikli qoʻllanilgan boʻlib, va “The case of perfect maid” esa 67 marta artikl qoʻllanilgan boʻlib, unda artikl turli maʼnolarni ifodalash uchun qoʻllanilgan. Masalan quyidagi “It was even worthy of The Watch” gapida The Watch soʻzi ayni Jimga tegishli boʻgan soatni nazarda tutayapti, koʻrinib turibdiki, bunda artikl aniqlikni ifodalab kelayapti. Bundan tashqari, “The Gift of the Magi” hikoyasida makonni ifodalovchi “here - shu erda ravishi 1 marta, there - anavi erda” ravishi esa 7 marta qoʻllanilgan.

1. *There was clearly nothing to do but flop down on the shabby little couch and howl-* bu yerda aytarli hech narsa yoʻq edi, faqat titilgan eski divan va uvillashdan boshqa.

2. *There was a pier-glass between the windows of the room-* bu yerda derazalar orasida faqatgina shisha bor edi. Har 7 holatda ham “there “ soʻzi “bu yerda” maʼnosida ayni gapirilayotgan joyni nazarda tutgan holda qoʻllanilgan.

“The case of perfect maid” hikoyasida esa makon ravishlaridan faqatgina there bu yerda ravish 10 marta qoʻllanilgan.

“The Gift of the Magi” hikoyasida vaqt deyksislaridan now- hozir, endi ravishi 7 marta, then- song, shundan keyin ravishi esa 6 marta qoʻllanilgan.

“The case of perfect maid” hikoyasida 4 o’rinda now, 2 o’rinda esa nowadays vaqt birliklari ko’rsatilgan. Umumiy xulosa qiladigan bo’lsak, ingliz badiiy matnlaridagi diskursning ishlatilish holatlarini quyidagi jadval orqali ifodalaymiz:

Diskurs turi	O. Henry “The Gift of the Magi”	Agatha Christie “The case of perfect maid
Presuppozitsiya	4 ta presuppozitsiya qo’llanilgan	3 ta presuppozitsiya qo’llanilgan
Implikatura	3 o’ringa implikatura hodisasi ishlatilgan	2 o’ringa implikatura hodisasi ishlatilgan
Deyksis		
Makon zamon deysizi	“here - shu erda ravishi 1 marta, there - anavi erda” ravishi esa 7 marta qo’llanilgan)	there bu yerda ravishi 10 marta qo’llanilgan.
Shaxs deysizi	20 marta shaxs deysizlari orqali ifodalangan.	30 marta turli shaxs deysizlari orqali ifodalangan.
Vaqt deysizi	now- hozir, endi ravishi 7 marta, then- sona, shundan keyin ravishi esa 6 marta qo’llanilgan.	4 o’rinda now, 2 o’rinda esa nowadays vaqt birliklari ko’rsatilgan.

3.3 Ingliz va o’zbek matnlarida diskurs-yuklamalari tahlil obyekti sifatida

Insonning kognitiv qobiliyatini ro’yobga chiqarishda, muloqot jarayoni/matnning kommunikativ va pragmatik strukturasini to’g’ri va maqsadli shakllantirish yoki uning emotsional-ekspressiv ta’sirchanligini oshirishda nutqni jonlantirishga, unga faoliyat, harakatlilik tusini beruvchi vositalar (jonli muloqot

nutqi birliklari, ekstralingvistik omillar, modal soʻzlar, yuklamalar, har xil kiritmalar va h.z) gʻoyat muhim oʻrin tutadi. Tilimizning ijtimoiy vazifalari kengaya borishi bilan bunday vositalarning miqdori kundan kun koʻpayib, chegarasi muntazam kengayib bormoqda. Bu jarayonni nafaqat bizning tilimiz, balki milliy istiqlolga erishish tufayli mustaqil taraqqiyot va baynalmilal aloqaga kirishgan har bir til boshdan kechirgan. Shuning uchun ikkinchi jahon urushidan keyin dunyo tilshunoslarining eʼtiborini tortgan qiziqarli masalalardan biri - kommunikatsiya jarayonida faol ishtirok etuvchi «diskursiv markerlar» va diskurs kategoriyalarining – yuqorida sanab oʻtilgan «nutqni jonlantiruvchi» vositalarning - jadal rivojlanishi va safining kengayib borayotganligi boʻldi. “Diskursiv marker” deganda shaklan soʻz yoki soʻz birikmasi, hatto gap tuzilishiga ega boʻlib, shu diskursda, matnda oʻz denotativ informativ qiymatini yoʻqotib, eng avvalo matnni jonlantirish, uni harakatdagi jarayon sifatida berish, shu bilan birga uning butunligini taʼminlash, turli xildagi subʼektiv emotsional-ekspressiv taʼsirchanligini oshirish, adresantning individual uslubi xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiladigan hosilalar tushuniladi. Diskursiv markerlar matnda harakatchanlik boʻyogʻini berish bilan birga ifodalanayotgan matn va diskursning oʻtgan qismi orasidagi munosabatlar haqida xabar beradi (yaʼni, matn aloqadorligini taʼminlaydi) hamda kommunikatsiya paytida soʻzlovchi va adresatning oʻzaro munosabatini, soʻzlovchi ichki (ruhiy) holatini taʼsirchan shaklda sks ettiradi. Diskursiv markerlarning oʻziga xos xususiyati shundan iboratki, ularning taʼsir doirasi, odatda, gap yoki mikromatn chegarasidan chiqadi, katta kontekstlar bilan hatto metamatn – matndan tashqarida turgan holat-u vaziyatlar, soʻzlovchining zotiy xislatlari, ruhiy holati, ijtimoiy mavqei, madaniy saviyasi, bayon etilayotgan fikr va muloqot jarayoniga munosabati, muloqot jarayonining boshqa turdagi xilma-xil tarkibiy qismlarining xususiyatlari bilan ham aloqador boʻla oladi. Diskursiv markerlarni rus tilida [36, 21] va ingliz tilida [22, 643] qoʻllanilishi bilan shugʻullangan tadqiqotchilar bunday birliklarning matnni va diskurs (muloqot jarayonini) shakllantirish kabi struktur vazifa bilan birga har xil emotsional-ekspressiv taʼsirchanlik xususiyatlariga, soʻzlovchi ontologik xislatlari va muloqot

jarayonidagi ruhiy holatini aks ettirish qobiliyatiga ega ekanligini alohida uqtirishadi. Bizningcha ham diskurs markerlari, O‘zbek tilida ham nutq jarayonida faol ishtirok etib, turli-tuman pragmatik vazifalar - eng avvalo, matnni jonlantirish va butunlashtirish, har xil konnotativ ma’nolar ifodalashga xizmat qiladigan nutqiy hosilalar (so‘z, so‘z birikmalari, gap qurilishi) juda ko‘p. Bundan tashqari, diskurs markerlari nutdagi ma’noning kuchayishini va so‘zlovchining holatini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Ularning qaysi so‘z turkumi (modal so‘zlarmi yoki undovlarmi, yuklamalarmi yoki bog‘lovchilarmi) tarkibiga kiritish har xil munozaralarga sabab bo‘ladi, zeroki, ular bir xususiyati bilan modal so‘zlarga o‘xshasa, boshqa qirradi bilan undovlarga yaqinlashadi. Biz shunday so‘zlarni «diskursiv yuklamalar» atamasi ostida birlashtirdik. Diskursiv yuklamalar yuqorida aytilganidek, nutning espressivligini, ta’sirchanligini va ma’nosining yuksalishini ta’nimlaydi. Biz diskursiv yuklamalar qatoriga quyidagilarni kiritishni lozim topdik: *bale, bu, zab, hali, labbay, mayli, mana, ana, tuzuk, e, qani endi, qani, ishqilib, aytmoqchi, nega desang, baribir, o‘lgur, qurgur, qurmagur, tushgur, tushmagur, bo‘lgani bo‘ldi, aytgin-aytgin, boringki, qo‘yingki, kel, kelib-kelib, deyman, bu deyman, degin, shunday deng, yaxshisi, kimsan, bilasizmi, bormi, shunday, endi, savil, ha, yo‘g‘e, nahotki, shunaqami, attang, voy kabi so‘zlardir*. Ushbu diskurs yuklamalarini biz nutqimizda deyarli har kuni foydalanamiz, lekin ularning har birining ishlatilish o‘rni va holatlari mavjud, masalan nahotki so‘zini biz hayratlangan holatimizda yoki biror narsaga ishonmagan holatimizda foydalanamiz, shunday qilib so‘zini esa xulosa o‘rnida foydalanamiz. Demak har bir diskurs yuklamasi nutqda o‘z o‘rni va ahamiyati, ta’sirchanlik holatiga ega. Bu so‘zlarni tadqiq etish mobaynida biz ingliz tilidagi diskursiv yuklamalarni ham keltirishga harakat qildik. Schiffinning o‘zining kitobida 11 ta ingliz diskurs markerlariga oid batafsil tahlilni taqdim etadi va ular quyidagilar: *and, but, or, so, well, then, now, because, oh, you know, and I mean*. Shiffringa ko‘ra, DMga asoslangan yondashuv o‘zaro fikrlashda markerlarning rollarini tahlil qilish uchun so‘zlashuvga ta’sir qiluvchi va o‘zgaruvchan yondashuvlarni birlashtiradi [20, 60]. Ingliz tilida ham o‘zbek tilidagi kabi diskurs

markerlarning har birining o'z ishlatish o'rni va holatlari mavjud. Bundan tashqari, ingliz tilida diskurs markerlarining yozma hamda og'zaki nutqlarda ishlatiladigan shakllari bor. Og'zaki nutqda ishlatiladigan diskurs markerlari: *anyway, like, anyway, right, you know, I mean, so, now, fine, good, oh, well, as I say, for a start, mind you, okay, great*. Yozma DM esa quyidagilar: *firstly, in addition, moreover, on the other hand, on the one hand, however* va boshqalar.

Endi esa diskurs yuklamalarining ingliz va o'zbek badiiy matnlarida qay holatda uchrashini solishtiramiz. Dastlab Abdulla Qahhorning "Dahshat" hikoyasidagi diskurs yuklamalarining ko'rib chiqsak.

- ***O'lsin***, nokas odam ekan, bitta qo'yni deb... Koshki arziydigan narsa bo'lsa!.. dedi- ushbu gapda "o'lsin" so'zkasida kelib lamasi vazifi kirish so'z bo'lib

diskurs yuklamasi vazifasida kelib, achchiqlanish, jahl ma'nosida ifodalangan.

- ***Obbo***, tegirmonchining qizi!.. Bitta qo'yni nazarlari ilmaydi! Nechta qo'y bo'lsa arzir edi?

- ***Mayli, mayli!*** — dedi Unsin ko'zlari javdirab, — lekin lafzingizdan aytmasangiz... Dodxoning dami ichiga tushib ketdi.

- ***Nihoyat***, qumg'on qaynadi.

Ko'rib turganimizdek, A. Qahhorning ushbu hikoyasida ***O'lsin, Obbo, Mayli, mayli! Nihoyat***, kabi diskurs yuklamalari qo'llanilgan bo'lib, ular asar bo'yoqdorligini, mazmunini kengaytirishga xizmat qilgan.

Shukur Xolmirzayevning "Bir ko'rgan tanish" hikoyasida esa quyidagi diskurs yuklamalari qo'llanilgan:

1. ***Aytmoqchi***, u kishininda g bo'ylari anchagina past, men bilan bab-baravar- ushbu gapda "aytmoqchi" diskurs yuklamasi qandaydir qolib ketgan gapni ya'ni uning bo'yi bab-baravar ekanligini aytish uchun qo'llanilgan.

2. ***Xo'p***, jiyan otdan tush

3. **Ohho**, tez yetib kelibmiz-u. Shu yermi aytgan joying?
4. **Xo'p**....mana..**e**, yashang, kam bo'lmang. Aka deyman, sizovdan maza qilmadingiz-a? – dedi ma'noli qilib.

Ko'rib turganimizdek, o'zbek badiiy matnlarida diskurs yuklamalari turli holatda va ko'plab uchraydi. Ular badiiy matnda asarning ta'sirchanligini, ba'zan esa asarning madaniy holatini ham ko'rsatishi mumkin.

Endi esa, diskurs markerlarining ingliz badiiy matnlarida uchrash holatlarini “The Gift of the Magi” va “The Case of the Perfect Maid” hikoyalari orqali diskursiv yuklamalarning ingliz badiiy adabiyotidagi ahamiyatini o'rganamiz.

Dastlab, O.He nryning “The Gift of the Magi” hikoyasidagi DM ro'yhatini ko'rsak.

1. **So**, now Della's beautiful hair fell about her rippling and shining like a cascade of brown waters.
2. **Oh**, and the next two hours tripped by on rosy wings
3. And then Della leaped up like a little singed cat and cried, **“Oh, oh!”**

ushbu hikoyada biz 3 ta diskurs markerlarini qo'llanilganligiga guvoh bo'ldik. Bu hikoyada DM ning achinish va xulosa mazmundagi So, Oh, Oh kabi holatlarda so'zloivchining munosabatini ko'rsatish va so'zning ta'sir doirasini kengaytirish uchun ishlatiladi.

“The Murder of the Perfect Maid” hikoyasida :

1. **“Oh please**, M'am, it's my cousin Gladdie. You see, she's lost her place.
2. **“Oh yes**, M'am., She's always one for a change. Glad-die is.
3. **Oh, thank you**, Madam," said Edna.
4. **“Well**, really," said Miss Marple, to whom these details were imparted by Miss Lavinia in the fishmonger's shop.

5. *"Oh, poor dear, she has been very much under the weather lately.*
6. *"Well, you know it did strike me that she was a little too good to be true*
7. *"Whew!" he muttered. "I wonder if she's right?"*

ushbu hikoyada ko'plab diskurs yuklamalari asosan oh, well, yes shaklidagi diskurs yuklamalari qo'llanilgan.

Yuqorida biz o'zbek badiiy matnlarida diskurs markerlarining qo'llanilishini Abdulla Qahhorning "Dahshat" va Shukur Xolmirzayevning "Bir ko'rgan tanish" hikoyalri orqali va ingliz adabiyotidan esa O. Henryning "The Gift of the Magi" hamda "The Case of the Perfect Maid" nomli hikoyalar orqali ko'rib chiqdik. Demak, diskurs yuklamalari har bir tilda mavjud va ular xalq madaniyati, og'zaki ijodidan kelib chiqqan holda paydo bo'lgan. Ba'zan o'zbek tilidagi va ingliz tilidagi diskurs markerlari ayn bir xil ma'noni bildirishi, ba'zan esa ikkala tildagi diskurs yuklamalari faqat shu tilda so'zlashuvchilargagina xos bo'lishi mumkin ekan, ammo mazmun jihatdan diskurs yuklamalari ikkala tilde ham, ekspressivlikni, ta'sirchanlikni oshirishni va asosan kirish so'z sifatida qo'llanilishi mumkinligini angladik.

III bob yuzasidan xulosalar

Biz III bob orqali ingliz va o'zbek matnlarida diskursning qay darajada qo'llanilishi va ularning o'rtasidagi o'xshashliklar va faqrlar haqida so'z yuritdi. Yuqorida keltirilgan misollar va ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ingliz va o'zbek badiiy matnlarida diskurs kategoriyalarining uchrashi ma'no va mazmun uyg'unligi jihatdan bir biriga o'xshash ekan. Ammo, gap strukturasi va qurilishi esa har xilda namoyon bo'lishining guvohi bo'ldik. Eng avvalo o'zbek badiiy matnlarida diskurs kategoriyalarining qo'llanilishini iikita buyuk adiblarimiz A. Qahhorning "Dahshat" va Sh. Xolmirzayevning "Bir ko'rgan tanish" hikoyalarida uchrashini tahlil qildik va ikkala hikoyalarda aynan presuppozitsiya, implikatura va deysislarning qay darajada qo'llanilganligini shu ikki hikoya orqali solishtirdik. Keyin esa xuddi shu holatlarni gliz badiiy adabiyotida qay holatda qo'llanilganligini ingliz badiiy adabiyotidan O. Henryning "The Gift of the Magi" hamda "The Case of the Perfect Maid " nomli hikoyalar orqali ko'rib chiqdik. Har ikkala tilda foydalanilgan diskurs yuklamalarining sonini esa jadvallar asosida ko'rib chiqdik. Biz diskurs kategoriyalarini toppish uchun ularning mazmunini chuqur anglay olishimiz darkor ekan. Chunki, ba'zan ular bir so'z doirasida ikkala tilda ham uchrashi mumkin, ba'zan esa ularni faqatgina tarjima orqali aniqlashimiz mumkin. Masalan, yana, so'zi again so'zi bilan bir xil mazmunda presuppozitsiya hodisasining yasalishiga ko'mak berishin aniqladik. Bundan tashqari, biz nutqimizda deyarli har kuni foydalanadigan kirish so'zlar, achinish, g'azablanish va ekpressivlikni oshiruvchi so'zlar diskurs markerlari yoki diskurs yuklamalarining ikki tildagi o'xshash va farqli tomonlarini tahlil qildik. Ingliz tilida DM larning ishlatilish holatlari va qoidalari mavjud. Bundan tashqari ingliuz tilida diskurs yuklamalarining 2 turi, ya'ni og'zaki va yozma turlari mavjud ekanligini ham aniqladik va yana ingliz tilida DM larning qo'llanilishiga doir qoidalarini ham ko'rib chiqdik. Unga ko'ra DMIarning quyidagicha turlari mavjud ekan:

Agar biz tinglovchiga biror xabarni aniqroq yetkazmoqchi bo'lsak, ba'zi o'rinlarda biz what I mean, in other words, actually kabi kirish so'zlardan foydalanamiz. Biror bir holatga qiziqishimizni ko'rsatish uchun esa Really, yeah, right kabi DMLardan foydalanar ekanmiz. Ko'rinib turibdiki, bu holat nafaqat ingliz tilida, balki o'zbek tilida ham vaziyatdan kelib chiqqan holda qo'llanilar ekan.

Xulosa qilib aytganda, diskursning ingliz va o'zbek badiiy matnlarida qo'llanilishida o'xshash hamda farqli tomonlari mavjud ekan. Ba'zan ma'no jihatdan butunlay o'xshash, ba'zan esa bir biridan farq bilan ajralar ekan.

Umumiy xulosalar

Zamonaviy tilshunoslikda yangi yo'nalishlar sifatida tan olingan pragmatik va kognitiv tilshunoslikning asosiy muammolaridan biri diskurs masalasidir. Hayotimiz mobaynida biz diskurs atamasiga ko'p bor duch kelamiz. Lekin ko'pchiligimiz uning asl mohiyatini tushunmaymiz. Biz quyida dissertatsiya ishida diskursning asl mohiyatini ochishga, uning ingliz va o'zbek badiiy matnlarida qay holatda yuzaga kelishi va qo'llanilishiga doir ma'lumotlar berib o'tdik. Diskurs talqinida tilshunoslikda xilma xil qarashlar mavjud. Aksar tilshunoslar diskursni (fransuzcha *discourse*, inglizcha *discourse*, lotincha *discursus* – harakat, uzluksiz almashinish, suhbat, so'zlashish) nutqiy faoliyat jarayoni hamda so'zlashish uslubi kabi mazmunlarda tushuntirishga harakat qiladi. Diskurs turli tilshunoslar tomonidan turlicha ta'riflanadi. Masalan Golland tilshunosi T. A. van Deyk diskursni bir nechta darajada ko'rib chiqishni taklif qiladi. U **keng ma'noda** diskursga kompleksli kommunikativ voqea, **tor ma'noda** esa kommunikativ harakatning yozma yoki nutqiy verbal mahsuloti sifatida qarash lozimligi haqida fikr bildiradi. Dell Hymes fikriga ko'ra diskurs og'zaki nutqda bir birimiz bilan muloqot qilishimizdir. A.Pardayev e'tirof etishicha diskurs bu so'zlovchi va tinglovchining o'zaro fikr almashish, bir-biriga ta'sir ko'rsatish maqsadida lisoniy va nolisoniy vositalardan o'zlari eng samarali deb hisoblagan shakl va turda amaliy foydalanish jarayoni. Diskurs bu – jarayon, insoniy faoliyat turidir deydi. Bizningcha esa Demak diskurs bu insonlarning o'zaro fikr almashinishi, muloqot qilishi, bir biriga turli ma'lumotlarni yetkazishi, ma'lumotlarni yetkazish uchun turli vositalardan foydalanishi, ikkala suhbatdoshga ham tushunarli bo'lgan jarayon diskurs hisoblanadi. Diskurs dialog ham monolog ham bo'lishi mumkin. Qisqartirib aytganda, har qanday suhbat jarayoni yoki nutq bu diskursdir. Diskursning quyidagi turlari mavjud:

yangilikli diskurs, publitsistik diskurs, siyosiy diskurs, ilmiy diskurs, badiiy diskurs

baholovchi diskurs kabi yangi tushunchalarning yuzaga kelishiga imkon beradi. Bu tushunchalarni biz har xil holatlarda qo'llashimiz mumkin. Diskursning yangilikligi, biz biror bir xabarni eshitamiz va uni suhbatdoshimizga yetkazamiz. Talqin va izohlarining xilma-xilligi diskurs tushunchasining ko'p qirrali va keng qamrovli ekanligini ko'rsatadi.

Diskursning badiiy adabiyotlarda shakllanishida uning kategoriyalarining ahamiyati katta hisoblanadi, chunki ular nafaqat diskurs, balki pragmatikaning badiiy matnlarda namoyon bo'lishi va shakllanishiga xizmat qiladi. Diskursning quyidagicha kategoriyalri mavjud: Propozitsiya, presuppozitsiya, implikatura, deysis, inferensiya va referensiya.

Biz dissertatsiya ishining ikkinchi bobida matn va uning diskurs bilan o'zaro uyg'unligi haqida fikr yuritdik. «Matn» atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. O'zbek tilining izohli lug'atida matn so'zining arabchadan o'zlashganligi, eskirgan kitobiy so'z ekanligi va aynan tekst so'zi anglatgan ma'noga tengligiga ishora qilinadi. Demak, matn deyilganda faqatgina yozma shakl inobatga olinishi kerak. Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat. Dastlab “diskurs” va “matn” terminlari ayni bir tushuncha uchun qo'llangan bo'lsa, keyinroq “matn” yozma kommunikatsiyaga nisbatan, “diskurs” esa og'zaki kommunikatsiyaga nisbatan ishlatilgan. Bu so'zning ma'nosi fransuzcha discours - “nutq”, “so'zlash” demakdir. Shunday ekan matn til sintaktik sathining oliy darajadagi birligi bo'lib, gaplar ketma-ketligining bog'lanishlilik asosida og'zaki va yozma shaklda yuzaga keladigan struktural, semantik va kommunikativ jihatdan yaxlit bir butunligidir. Matn va diskurs bir birini to'ldirib, bir biriga chambarchas bog'liqdir. Matn turli xil bo'lishi mumkin ba'zan u katta hajmda ba'zan esa birgina so'z bilan ham ifodalanishi mumkin. Masalan, atirgul so'zini yozsak, ko'z oldimizga turli xil rangdagi ajoyib gullarkeladi, ona so'zida esa mehribon, doim biz uchun qayg'uradigan mehribon zot keladi. Demak, birgina so'z bilan ham matn yaratish mumkin ekan.

Tadqiqot ishining uchinchi bobi ingliz va o'zbek badiiy matnlarida diskursning qiyosiy tahliliga bag'ishlanadi. Yuqorida keltirilgan misollar va ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ingliz va o'zbek badiiy matnlarida diskurs kategoriyalarining uchrashi ma'no va mazmun uyg'unligi jihatdan bir biriga o'xshash ekan. Ammo, gap strukturasi va qurilishi esa har xilda namoyon bo'lishining guvohi bo'ldik. Eng avvalo o'zbek badiiy matnlarida diskurs kategoriyalarining qo'llanilishini iikita buyuk adiblarimiz A. Qahhorning "Dahshat" va Sh. Xolmirzayevning "Bir ko'rgan tanish" hikoyalarida uchrashini tahlil qildik va ikkala hikoyalarda aynan presuppozitsiya, implikatura va deyksislarning qay darajada qo'llanilganligini shu ikki hikoya orqali solishtirdik. Keyin esa xuddi shu holatlarni ingliz badiiy adabiyotida qay holatda qo'llanilganligini ingliz badiiy adabiyotidan O. Henryning "The Gift of the Magi" hamda "The Case of the Perfect Maid " nomli hikoyalar orqali ko'rib chiqdik. Har ikkala tilda foydalanilgan diskurs yuklamalarining sonini esa jadvallar asosida ko'rib chiqdik. Biz diskurs kategoriyalarini topish uchun ularning mazmunini chuqur anglay olishimiz darkor ekan. Chunki, ba'zan ular bir so'z doirasida ikkala tilda ham uchrashi mumkin, ba'zan esa ularni faqatgina tarjima orqali aniqlashimiz mumkin. Masalan, yana, so'zi again so'zi bilan bir xil mazmunda presuppozitsiya hodisasining yasalishiga ko'mak berishin aniqladik. Bundan tashqari, biz nutqimizda deyarli har kuni foydalanadigan kirish so'zlar, achinish, g'azablanish va ekpressivlikni oshiruvchi so'zlar diskurs markerlari yoki diskurs yuklamalarining ikki tildagi o'xshash va farqli tomonlarini tahlil qildik. Ingliz tilida DM larning ishlatilish holatlari va qoidalari mavjud. Bundan tashqari ingliuz tilida diskurs yuklamalarining 2 turi, ya'ni og'zaki va yozma turlari mavjud ekanligini ham aniqladik va yana ingliz tilida DM larning qo'llanilishiga doir qoidalarini ham ko'rib chiqdik. Unga ko'ra DMLarning quyidagicha turlari mavjud ekan:

Agar biz tinglovchiga biror xabarni aniqroq yetkazmoqchi bo'lsak, ba'zi o'rinlarda biz what I mean, in other words, actually kabi kirish so'zlardan foydalanamiz. Biror bir holatga qiziqishimizni ko'rsatish uchun esa Really, yeah, right kabi

DMLardan foydalanar ekanmiz. Ko'rinib turibdiki, bu holat nafaqat ingliz tilida, balki o'zbek tilida ham vaziyatdan kelib chiqqan holda qo'llanilar ekan.

Xulosa qilib aytganda, diskursning ingliz va o'zbek badiiy matnlarida qo'llanilishida o'xshash hamda farqli tomonlari mavjud ekan. Ba'zan ma'no jihatdan butunlay o'xshash, ba'zan esa bir biridan farq bilan ajralar ekan. Shunday qilib, diskursga biz badiiy adabiyotlardan juda ko'plab misollar keltirishimiz mumkin ekan, ular badiiy asar mazmun va mohiyatini yoritish va kuchaytirishga xizmat qilar ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi hozirgi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 3-may kuni Namangan viloyati To'rao'rg'on tumanidagi Ishoqxon Ibrat majmuasiga tashrif chog'ida so'zlagan nutqidan
2. Abdullayeva. M. Falsafa qisqacha izohlu lug'at.-Toshkent, Sharq. 26-bet.
3. Boymirzaeva S.Modallikning matn kommunikativ mazmuniga xosligi.-Rahmatulla Qo'ng'urovning ilmiy merosi va o'zbek tilshunosligi masalalari. – Samarqand: SamDU nashri, 2008.-B.76.
4. Doniyorov X., Mirzayev S. So'z san'ati.– Toshkent: O'zadabiy nashr, 1962.– 173-174.
5. Fitrat A. Tanlangan asarlar. IV jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006. –B. 12-
6. Grice H.P. Logic and conversation. In: Syntax and Semantics. –Vol.3: Speech acts. –New York: Academic Press, 1975. –P. 41-58..
7. Grice H.P. The Causel Theory of Perception article. 1967.
8. Hakimov M.X. O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari. N.D. Toshkent, 1993. –B.21.
9. Hojiev A.Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2002, -B. 61
10. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish.- Toshkent, O'qituvchi, 1992. –B. 159-160
11. John J. Gumperz. Discourse Strategies.-Cambridge University Press, P- 2
12. Lyons J. Semantics, vol. 1 and 2.-Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – P. 897 637-638
13. Lyons J. Semantics, vol. 1 and2.-Cambridge: Cambridge University Press, 1977. –P. 177
14. Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap. O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 1986. –B.29.
15. Nurmonov A. Shakl va mazmun munosabati-lingvistik tadqiqotlar asosi. O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 2010, -B.29

16. Pardayev. A. B Diskurs haqida ayrim mulohazalar, -B.1
17. Pardayev.Z. Pragmatik Lingvistika.-Samarqand, 2013. B-104. 37
18. Pardayev.Z. Pragmatik Lingvistika.-Samarqand, 2013. B-32
19. Ruseel B. Human Knowledge.-London: George Allen and Unwin Ltd., 1948.- P. 113
20. Schiffrin, D. Tannen, D. and Hamilton, H.E. The Handbook of Discourse Analysis. London: Blackwell 2003, p. 60
21. Sharafiddinov O. Adaboiyot tildan boshlanadi // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1986, 5-sentabr
22. Traugott E.C. Constructions in grammaticalization // The handbook of historical linguistics / ed. By B.D. Jozeph, R.D.Janda. Oxford: Blackwell, 2003. p.643
23. Turniyozov N., Yo'ldoshev B. Matn tilshunosligi. Ma'ruzalar matni. – Samarqand. 2006. – B. 36.
24. Vinogradov . V. Badiiy adabiyot tili haqidagi fan va uning vazifalari. ma'ruza. –B. 122
25. Xayrullayev X. Nutq sathlarining pog'onali munosabati. – Samarqand. SamDCHTI, 2008. – B.3
26. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. –B. 35.
27. Yo'ldoshev M., Isoqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili.– Toshkent: 2010. –B.11
28. Yule G.Pragmatics. –Oxford: Oxford Univ. Press, 1996. -28 p.
29. Арутюнова Н.Д. Дискурс. В кн.: Лингвистическая энциклопедия.- М., 1990.-С. 136-137.
30. Арутюнова Н.Д. Фактор адресата. Литература и язык. –Т.№4. 1981. –С. 356-367.
31. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. - М.: Наука, 1981.-140 с.

32. Грайс Г.П. Логика и речевое общение. В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. - Вып.16, Лингвистическая прагматика. - М.: Прогресс, 1985.-С 217-237
33. Гурочина А.Г. Понятие дискурса в современном языкознании Номинация и дискурс.-Рязань 1999. -С.13.
34. Дейк Т.А. ван. Язык, познание, коммуникация. - М.: Прогресс, 1989. -С. 372.
35. Звегинцев В.А. История языкознания XIX и XX веков в очерках и извлечениях.- М.: Учпедгиз, 1960. Ч. I.- С.170
36. Зеленшиков А. В. Пропозиция и модальность. Изд-во С.-Петербург, ун-та, 1997. -С. 208-209.
37. К.Л.Киселёва, Д.Пайар Дискурсивные слова русского языка: опыт контекстно-семантического описания – М., 1998. – С. 21
38. Карасик В.И, Этнокультурные типы институционального дискурса Этнокультурная специфика речевой деятельности: Сб. обзоров. - М.; ИНИОН РАН, 2000. - С.37-64
39. Лосева Л. Как строится текст. – М. 1980. С-4.
40. Макаров М.Л. Основы теории дискурса. М.: Гнозис, 2003.-С. 125-127
41. Матвеева Т.В. Полный словарь лингвистических терминов- Феникс, 2010, -С.560-49
42. Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика. Тошкент-2008. –Б. 320-119
43. Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика. Тошкент-2008. –Б. 320-247
44. Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика. Тошкент-2008. –Б.320. 123-124
45. Серль Дж., Вандервекен. Д Основние понятия исчисления речевых актов. НЗП Выт 18.-М:Професс, 1986.-С. 170.
46. Смирницкий А.И. Морфология английского языка. М., Изд-во лит. на иностр. яз., 1959. - 440 с.

47. Стариченок В.Д. Большой лингвистический словарь.-Ростов-на-Дону, Феникс, 2008, - С.523.
48. Стариченок В.Д. Большой лингвистический словарь - Феникс, 2008, С-287.
49. Стариченок В.Д. Большой лингвистический словарь - Феникс, 2008, С-288
50. Столнейкер Р.С. Прагматика Новое в зарубежной лингвистике. 1985С. 130-150.
51. Фреге Г. “Смысл и денотат”,1957. С.32
52. Шмелева Т.В. Модель речевого жанра// Жанры речи Саратов Колледж, 1997. – С.89-98
53. Якобсон Р. Избранные работы - М.: Прогресс, 1985. С.34; Гак В.Г. Прагматика, узус и грамматика речи. 1982-№5.-С.11-17.

Badiiy adabiyotlar ro'yxati

1. A. Qahhor Tanlangan asarlar. Toshkent. 1-tom . –B. 3
2. A. Qahhor Tanlangan asarlar. Toshkent. 1-tom . –B. 33
3. Abdulla Qodiriy. O'tgan kunlar. – Toshkent, 1958, -B. 370)
4. Agatha Christie. The Case of the Perfect Maid.
5. Jane Austen “Pride and Prejudice, 1813. P. 132-177
6. Nazar Eshonqul. Yalpiz hidi: Qissalar va hikoyalar/ “Urush odamlari” – T.:Sharq, 2008. – B. 20
7. O. Henry. The Gift of the Magi.
8. Toxir Malik, Murdalar Gapirmaydilar. -Toshkent, Sharq, -B. 171-129
9. O'. Hoshimov. Daftar xoshiyasidagi bitiklar, Toshkent, Sharq, 2012.-B.25
10. O'tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. –Toshkent, Yangi asr avlodi. 2017. – B. 328-48
11. Shukur Xolmirzayev Tanlangan asarlar. –Toshkent, Sharq, 2012. –B. 4